



VOLUME-22



ISSUE-2



December - 2023

WORLD SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL



WORLD SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL

International scientific electronic journal

Volume-22 _Issue-2

December - 2023

Jahon ilmiy tadqiqot
jurnali

MUASSIS:

Qo'qon davlat pedagogika instituti,
"Ustozlar uchun" MCHJ

TAHRIRIYAT | EDITORIAL

Tahririyat kengashi raisi:

D.SH.Xodjayeva- filologiya fanlari nomzodi,
dotsent

Jamoatchilik kengashi raisi:

D.SH.Xodjayeva- filologiya fanlari nomzodi,
dotsent

Bosh muharrir

D.SH.Xodjayeva- filologiya fanlari nomzodi,
dotsent

Mas'ul muharrir:

N.S.Jo'rayev - psixologiya fanlari nomzodi,
dotsent

Mas'ul muharrir yordamchisi:

O.Y.To'xtasinova- filologiya fanlari
nomzodi, dotsent

Nashr uchun mas'ul:

Rasulov Inom Muydinovich -
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va
ommaviy kommunikatsiyaragentligi
tomonidan berilgan 1547 raqamli
guvohnoma asosida ro'yhatga olingan

Tahririyat manzili:

Farg'ona viloyati, Qo'qon shahri, Turon
ko'chasi, 23-uy

Telefon:

(0373) 542-38-38

E-mail:

info@wsrjournal.com

Tahrir kengashi:

Sh.Farmonov - O'zR FA akademigi
Sh.Namozov - O'zR FA akademigi
S.Rashidova - O'zR FA akademigi
I.Asqarov - kimyo fanlari doktori, professor
V.Xo'jayev - kimyo fanlari doktori, professor
Sh.Abdullayev - kimyo fanlari doktori, professor
M.Isakov - kimyo fanlari doktori, professor
R.Rasulov - fizika-matematika fanlari doktori, professor
B.Samatov - fizika-matematika fanlari doktori, professor
D.Akbarov - fizika-matematika fanlari doktori
A.Xusanov - fizika-matematika fanlarinomzodi, dotsent
V.Isaqov - biologiya fanlari doktori, professor
G'.Abdullayev - biologiya fanlari doktori
A.Batashov - biologiya fanlari doktori
D.Mamatqulov - biologiya fanlari nomzodi, professor
H.Xonboboev - texnika fanlari nomzodi, dotsent
B.Nu'monov - texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
I.Oxunov - kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
R.Payg'amov - kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
N.Valiyev - kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
A.Gapparov - Kimyo fanlari nomzodi, dotsent
N.Karimov - O'zR FA akademigi
A.S.Sagdullayev - O'zR FA akademigi
O.Akimova - filologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
V.Borisova - filologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
I.Artyushkov - filologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
M.Rasulova - filologiya fanlari doktori, professor
Sh.Iskandarova - filologiya fanlari doktori, professor
D.Nabiyeva - filologiya fanlari doktori, professor
O.Bozorov - filologiya fanlari doktori
A.Ziyayev - filologiya fanlari doktori (DSc)
D.Jamoliddinova - filologiya fanlari doktori (DSc)
Z.Qobilova - filologiya fanlari doktori (DSc)
M.Hoshimova - filologiya fanlari nomzodi, dotsent
M.Siddiqov - filologiya fanlari nomzodi, dotsent
M.Jamoliddinov - filologiya fanlari nomzodi, dotsent
O.O.Bozorov - filologiya fanlari nomzodi
M.Rasulova - filologiya fanlari nomzodi, dotsent
V.Karimova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
M.Djo'rayev - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G.Kislov - falsafa fanlari doktori, professor (Rossiya)
G.Abdullayev - falsafa fanlari doktori, professor
M.Aminova - falsafa fanlari nomzodi, dotsent
M.Temirboyev - falsafa fanlari nomzodi
T.Fayzullayev - siyosat fanlari doktori, professor
A.Rasulov - tarix fanlari doktori, professor
R.Shamsiddonov - tarix fanlari doktori, professor
Q. Akbarov- tarix fanlari nomzodi
T.Haydarov - iqtisod fanlari doktori, professor
N.Babayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent
N.Erkaboyeva - pedagogika fanlari doktori, dotsent
S.Alimsaidova - pedagogika fanlari doktori, dotsent
Z.Azimova - pedagogika fanlari doktori, dotsent
V.Qodirov - pedagogika fanlari doktori, dotsent
A.Tolibjonov - pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
J.Azamov - yuridika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
D.Soliyeva - psixologiya fanlari doktori, dotsent
O.Bektoshev - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
M.Ergashev - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
N.Aliboyeva - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G.Nazirova - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
A.Abdurashitov - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Kadirova Nigora Rashidovna, Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Fan tarmoqlari: Matematika, fizika, informatika, geografiya, psixologiya, ijtimoiy fanlar

LEARNER AUTONOMY

Xusenjonova Mohinur Faridunovna

m_faridunovna15@outlook.com

<tel:+998904741504>

Samarkand State Institute of Foreign Languages

English faculty II student of 2201 group

*Scientific supervisor: **Pardayeva A. R.***

Abstract: How does one become an autonomous learner? Is there a way to learn how to understand inferences, read between the lines and beyond the text, how to analyze a high-level text? What is the difference between extensive and intensive/reflective reading? What techniques and strategies could help intermediate and advanced students master skills of a reflective reader? Critically reflective inquiry is the most significant part of autonomy in thinking. Will it engage students in learning tasks, will students persevere in the face of difficulties, and how students will handle disappointments and challenges? What strategies could help students retain the material? The article answers these questions; it contains a variety of strategies, which practitioners may use in the classroom and offer their students in order to develop skills of autonomous learners. ^[1]

Key words: language learning, age, autonomous student, individual, strategies, various

Language learning is a modern requirement today. It is possible to learn the language at any age, it is not enough for the student to work in a lesson with the teacher to learn, to increase vocabulary, to improve reading or to refresh skills, there are two sides of the coin, so that student has to work on himself at home.

Learning is an individual process and students need to feel good about how they approach and engage in learning tasks, whether they are motivated to persevere in the face of difficulties, and how they handle disappointments and challenges. ^[1;2]

Defined Learner Autonomy. Ability to take charge of one's own learning. Main idea behind learner autonomy is that students should take responsibility for their own learning, rather than be dependent on the teacher (Holec 1981). "The autonomous learner is one that constructs knowledge from direct experience, rather than one who responds to someone's instruction" (Benson 2001) ^[2]

Characteristics of Autonomy. Concept based in natural tendency for learners to take control over their learning. Autonomy may be displayed in different ways and to different degrees depending on each learner and learning situation. Learners who lack autonomy are capable of developing it given appropriate conditions and preparation. Autonomous learning is more effective than non-autonomous learning. ^[2;1]

Various of Autonomy Learners. TECHNICAL - The act of learning a language outside the framework of an educational institution and without the intervention of a teacher. PSYCHOLOGICAL - The capacity which allows learners to take more responsibility for their own learning. POLITICAL - The conditions that allow learners to control the process and content of learning as well as the institutional context within which learning takes place. SOCIAL - The capacity to interact and collaborate with others. [2:2]

Autonomy involves students having a range of learning strategies which they are able to apply flexibly in different contexts. Teachers can help students to develop learning strategies through learner training in the classroom and this can take many forms. One important practical step is awareness-raising on how to use self-reference tools such as English-English dictionaries and grammar books. [3]

Strategies:

- choosing controversial materials Nowadays, we are overwhelmed with such materials, newspaper articles, TV channels, the Internet, magazines, blogs, etc. are great resources. They are perfect for developing reflective independent thinking.

- discussing a title A title is a story's first impression. Titles are extremely important. A title creates anticipation and expectation or, perhaps, disinterest. Often the title is what will determine whether or not someone reads a story. “Горячая зима” (Hot Winter) title in the “Politics” rubric sounds controversial, it is unlikely about weather forecast. The “Доллару требуется лекарь“(Dollar needs a doctor) title obviously contains some implications and will lead to a discussion.

- generating associations around a topic A discussion before the reading on its topics builds background knowledge to aid in the comprehensibility of the text. Ask questions: What is the general topic? What is my prior knowledge of the topic? What is the main issue?

- prediction and contextualization: Working on predictive and contextualizing skills means that students practice working out the answer by considering the hints and clues in the text in the light of their own knowledge and experience.

- skimming and scanning Skimming and scanning are reading techniques that use keywords to move quickly through the text. Skimming is reading rapidly in order to get a general overview of the material. Scanning is used in order to find specific facts, quickly gather the most important information or 'gist'.

- inferencing Development of inferring, is the bedrock of comprehension and inferential thinking and means practicing the creation of a personal and unique meaning from the text. Choosing the right texts is crucial for developing inferential thinking, because very explicit texts provide just a few opportunities for inferences to be made. The ability to use two or more pieces of information from a text in order to arrive at a third piece of information that is implicit. It involves combining information from the

text and relevant background knowledge. Inferences may be causal, drawn during reading, or drawn after reading, etc.

- activating background knowledge Background knowledge is an organized schemata which leads us to expect or predict aspects in our interpretation of discourse by matching what we hear with what we already know. Bartlett, whose use of the term schema has been applied to the research on second language listening argued that our memory aggregates experience into “schemata” (1967, pp. 201-202, in Madden, 1997) and applies them in a manner similar to imagination. A discussion before the reading on its topics builds background knowledge and the comprehensibility of the text as well as giving the teacher an idea of where students’ background knowledge needs to be developed more.

- summarizing texts Individually, learners read the texts and summarize the key points. Learners may present their summary in their blogs or orally, which may lead to an open discussion of the content of the text. This strategy encourages learners to read for themselves, extract key points and try to make sense of their reading without relying solely on input and explanation from the facilitator. Only where a lack of understanding persists, should the facilitator provide clarification.

- creating learner-generated quizzes Effective autonomous learning requires the ability to review, consolidate and build on what has been learnt. Compiling and answering learner-generated quizzes provide such opportunities to increase learners’ understanding of the course content. This strategy prompts learners to consider what they have learnt, what they still need to learn. We do it not for grades, but for retention of the material.

- teaching it to a teacher Emotions that are stimulated when students have an opportunity to teach what they’ve recently learned may create greater knowledge and memory. When teachers tell their students before a lesson that they will need to prepare to teach what they learn, pupils tend to work harder to understand the material, search for the main points, organize and apply knowledge more effectively, and score higher on tests. Researchers call these findings “the protégé effect.” [1;3]

It is valuable for learners to be mindful of how they approach given errands. This mindfulness can empower learners to create choices almost the strategies and methods they utilize in their learning. This methodology fortifies the capacity for independence. Learners may need to compose a brief reflection on how they drawn nearer the errand in a shape of blogs. The role of the instructor is to assist them ended up more mindful of their possess needs, interface, inclinations, internalizations, values, objectives and desires, and empower student’s self-monitoring.

In the classroom environment, it is very important for students to vocalize their understanding, thoughts, judgements, or beliefs on each authentic passage they read or listen to. Why? Because everything they get perceptively should be transformed from

passive/perceptive comprehension/memory into expressive memory. This technique is crucial for retention and assimilation of the material. The author's favorite moment in the classroom is when, by the end of the lesson, students teach it to the teacher. Students admit that this is the best way for retention of the material, and they do not get home assignments, because the most part of the given material has been done at the lesson. Teaching is not a craft, it is an art. Don't be a mentor in the classroom, be a navigator.

[1:4]

References:

1. [Strategies to become an autonomous learner \(cyberleninka.ru\)](http://cyberleninka.ru)
2. [Approaches to Learner Autonomy in Language Learning Erin \(present5.com\)](http://present5.com)
3. [Learner Autonomy - Teaching English with Oxford \(oup.com\)](http://oup.com)
4. A.Halim Sykes. Four Strategies for Promoting and Developing Learner Autonomy in Blended Learning Contexts. Teaching and Learning Centre, SIM University

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA HARBIY XIZMATCHILARNING
PENSIYA TA’MINOTI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕНСИОННОЙ СИСТЕМЫ
ВОЕННОСЛУЖАЩИХ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН**

**IMPROVING THE PENSION SYSTEM FOR MILITARY SERVANTS
IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

Berdiyeva Umida Ubaydullayevna

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi Universiteti

Bakalavriat fakulteti Ayol kursantlar guruh komandiri

Umida.axundjanova@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada harbiy xizmatchilarning pensiya ta’minoti tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlili bayon etilib, dunyoning ko‘plab davlatlari, jumladan, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlaridagi harbiy xizmatchilar pensiya ta’minoti tizimini isloh qilish va takomillashtirish bilan bog‘liq xorij tajribalari o‘rganilgan. Bundan tashqari mamlakatimizda “Harbiy xizmatchilar (xodimlar) va ularning oila a‘zolarining davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi Qonun loyihasi harbiy xizmatchilar pensiya ushbu sohani rivojlantirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: pensiya, nafaqa, pensiya ta’minoti, pensiya olish huquqi, xizmat yillari, pensiya tayanch miqdori, pensiyaga ustama haqlar, pensiya turlari, pensiya olish shartlari, pensiyaning umumiy eng yuqori miqdori, pensiyani rasmiylashtirish.

Аннотация: В данной статье представлен анализ проводимых реформ в системе пенсионного обеспечения военнослужащих, изучен зарубежный опыт реформирования и совершенствования системы пенсионного обеспечения военнослужащих во многих странах мира, в том числе в странах СНГ. Кроме того, в нашей стране проектом закона “О государственном пенсионном обеспечении военнослужащих (сотрудников) и членов их семей” разработаны предложения и рекомендации по развитию данной сферы пенсионного обеспечения военнослужащих.

Ключевые слова: пенсия, пособие, пенсионное обеспечение, право на пенсию, годы службы, базовый размер пенсии, надбавки к пенсии, виды пенсий, условия получения пенсии, общий максимальный размер пенсии, оформление пенсии.

Abstract: this article describes the analysis of the reforms that can be implemented in the pension system of military personnel and it is studied foreign experiences related to the reform and improvement of the pension system of military personnel in many countries of the world, including the countries of the CIS. In addition, in our country, the draft Law "On state pension provision of military

servicemen (personnel) and their family members" has developed suggestions and recommendations for the development of this field of military servicemen's pension.

Key words: pension, pension provision, right to receive pension, years of service, basic amount of pension, premiums for pension, types of pension, conditions for receiving pension, total maximum amount of pension, registration of pension.

Xozirgi dunyodagi siyosiy notinch paytda davlatimiz mudofaa qudratini har tomonlama oshirish, etuk va malakali harbiy kadrlarni tayyorlashga, Vatan himoyachilari, ularning oilalari uchun munosib hayot sharoitlarini yaratishga bundan keyin ham alohida e'tibor qaratilayotgan davlat siyosatimizning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib turibdi. Respublika Prezidenti Sh.Mirziyoev ham 2020 yil 29 dekabr kuni Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Kelgusi yilda mamlakatimiz mudofaa salohiyatini rivojlantirish bo'yicha islohotlarimizni davom ettiramiz" dedi va: "xususan, Qurolli Kuchlar qudratini, qo'shinlarning professional va jismoniy salohiyatini yuksaltirish, harbiy xizmatchilar va ularning oilalarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlariga alohida e'tibor qaratamiz" deya bajariladigan vazifalar ko'lamini atroflicha keltirib o'tdi.

Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "... inson manfaati va yana bir bor inson manfaati islohotlarning bosh maqsadi etib belgilandi" [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning: "Yoshi ulug' insonlar, katta avlod vakillariga e'tibor va amaliy g'amxo'rlikni kuchaytirish, ularning pensiyalarini oshirish, tibbiy xizmat va ijtimoiy-maishiy ta'minotini yaxshilash bundan buyon ham Prezident uchun, Hukumatimiz va barcha hokimliklar uchun eng muxim ustuvor vazifalardan biri bo'lib qoladi" deganlari O'zbekistonda pensiya tizimiga qaratilayotgan yuksak e'tibordir. Zero, jahon amaliyotida Pensiya ta'minoti ijtimoiy muxofazaning ajralmas qismi hisoblanib, davlatning asosiy fuksiyalaridan biri hisoblanadi. Davlatning tuzilishi va imkoniyatlariga muvofiq holda fuqarolarning ijtimoiy ta'minotga bo'lgan huquqlari Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasi tomonidan 1948 yil 10 dekabrda qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ning 22-moddasida qayd etib o'tilgan. Unga ko'ra, pensiya ta'minoti – muayyan davlat qonunchiligida o'rnatilgan tartibda, asosiy daromad manbasini qariyalik, nogironlik va boquvchisini yo'qotgan fuqarolarni moddiy ta'minlashga yo'naltirilgan huquqiy va iqtisodiy chora-tadbirlar majmuasidir.

Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar kundalik turmushimizning barcha sohalariga taalluqli bo'lib, bu jarayon shu jumladan, xarbiy pensiya ta'minoti soxasida ham keng qamrov bilan amalga oshirib kelinmoqda va bunda xarbiy xizmatchilarimizning ijtimoiy ta'minot olishga oid konstitutsiyaviy huquqlarini yana ham kengaytirish, uning kafolatlarini kuchaytirish orqali berilayotgan moddiy- ijtimoiy yordamlarni miqdor va sifat jihatdan yana ham yaxshilash, ijtimoiy adolat va qonuniylik tamoyillari

buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik, hayot darajamiz o‘sishi bilan mutanosib ravishda pensionerlar moddiy turmush sharoitlari yuksalib borishiga erishish maqsadlari nazarda tutiladi.

Bu borada, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi kontseptsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-son Farmoni [2] qabul qilinishi harbiy xizmatchi va xodimlar ijtimoiy himoyasi yanada yuqori bosqichga olib chiqishga, yangidan-yangi mexanizmlarni nazarda tutadigan Hukumat qarorlarini qabul qilishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Konstitutsiyasining tegishli moddasiga ko‘ra [3] e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, unda “Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo‘qotganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo‘lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta‘minot olish huquqiga ega” deb ko‘rsatilgan. Ya‘ni ijtimoiy ta‘minot (masalan, pensiya ta‘minoti) olish uchun “qarilik”ka yetish shart bo‘lmasdan, “qonunda nazarda tutilgan boshqa hollar” bo‘lsa bas.

Binobarin, “O‘zbekiston Respublikasining Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi qonunning 39-moddasiga asosan Milliy gvardiyaning harbiy xizmatchilari (xodimlari), boquvchisini yo‘qotgan taqdirda esa ularning oila a‘zolari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va miqdorlarda davlat pensiya ta‘minotini olish huquqiga ega [4].

Ta‘kidlash joizki, sud, prokuratura yoki ichki ishlar idoralari xodimlarining pensiya ta‘minotining tashkiliy-huquqiy asoslari ma‘lum darajada hal etilgan bo‘lsa, harbiy xizmatchilar pensiyasi bilan bog‘liq qonunchiligimiz islohotlar jarayonidan ortda oqsab qolgan. Qurolli Kuchlar tarkibidagi vazirlik yoki harbiy tuzilmalar tomonidan idoraviy hujjatlar [5] chiqarilishiga qaramay, bu borada hanuzgacha asosiy qonun sifatida SSSR Oliy Sovetining 1468-1 sonli qarori bilan amalda bo‘lgan “Harbiy xizmatchilarning pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi 1990 yil 28 apreldagi qonuniga rioya qilinadi. Buni sohaning mutaxassislari ham tan olib, qonunning eskirganligini ta‘kidlashadi [6].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 13 martdagi “Vatan himoyasi va el-yurtimiz tinchligi yo‘lida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilar va xodimlar oila a‘zolarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-34-son Farmoni 6-bandida “Harbiy xizmatchilarning pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi qonun loyihasini ishlab chiqish va 1 dekabrqa qadar Vazirlar Mahkamasiga kiritish vazifasi belgilangan.

Professor V.Roikning ilmiy ishlarida aholini ijtimoiy himoya qilishda ijtimoiy sug‘urta tizimining o‘rni, uning moliyaviy-iqtisodiy asoslari, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy, tibbiy va pensiya sug‘urtasining zamonaviy institutlarini shakllantirish kabi masalalar tadqiq qilingan hamda bu orqali aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish asoslab berilgan [7].


Jamiyatda pensiya va nafaqa kabi tushunchalarning ko‘plab uchrab turishi, ularni oluvchilarini “pensioner”, “nafaqaxo‘r” deb atalishi albatta ba’zi bir savollarni yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Agar “pensiya” va “nafaqa” tushunchalarini bir xil talqin qiladigan bo‘lsak, demak biz amalga oshirayotgan tadqiqot ham ma’lum bir ma’noda pensiya va nafaqa tizimini takomillashtirishga oid bo‘lib qoladi. Sababi “pensiya” va “nafaqa” so‘zlari ikki xil ma’noda qo‘llaniladi hamda ularni oluvchilari o‘rtasida ham katta tafovut mavjud.

Tor ma’noda “pensiya ta’minoti” atamasi aholini keksayganda, nogiron bo‘lganda, boquvchisini yo‘qotganda yuzaga keladigan ijtimoiy xavflardan ijtimoiy himoya qilishning turli shakllarini o‘z ichiga oladi [8].

Pensiya-pensiya yoshiga etgan fuqarolarga ish staji davri, oylik ish haqi va Pensiya jamg‘armasiga to‘lagan sug‘urta badallari miqdoridan kelib chiqib tayinlanadi. Nafaqa esa qat’iy miqdorlarda belgilanadi, ayrim nafaqa turlari ish haqi miqdoriga va boshqa omillarga bog‘liq bo‘ladi.

J.P.Tursunov takidlashicha “Pensiya” o‘tgan ming yillikning o‘rtalaridan beri mavjud tushuncha hisoblanadi. Avvalgi pensiyalarning barchasi shaxsiy hisoblangan ya’ni ma’lum bir xukmdor yoki aristokratlar uchun tayinlangan.


“Pensiya o‘zining uzoq tarixiga ega. Ijtimoiy tizim tarkibi sifatida pensiya tizimi davlat arbobi, yozuvchi va qo‘mondon Gay Yuliy Tsezar boshchilik qilgan Rim imperiyasi davrida (eramizdan avvalgi 44-100 yillar) paydo bo‘lgan. Bundabirinchi marta harbiylarga (ularning keksalikdagi ijtimoiy ahvolini yaxshilash imkoniyatini yaratish maqsadida) imperatorning o‘z mablag‘lari hisobidan pensiya berilgan va bu holat jiddiy moliyaviy qiyinchiliklarni keltirib chiqargan. Ta’kidlash joizki, ayrim manbalarda “pensiya” atamasi aynan Yu.Tsezar tomonidan harbiylar uchun o‘ylab topilganligi qayd etilgan. Buyuk imperator “Yu.Tsezar o‘limidan so‘ng bunday pensiya to‘lovlari XVIII asrga qadar umuman unutib yuborilgan” [9].



1-rasm. Pensiya va nafaqaning o‘ziga xos jihatlari

“Birinchi marta davlat pensiya ta’minoti tizimi Germaniyada Germaniya imperiyasining birinchi kantsleri Otto fon Bismark tomonidan 1889 yilda joriy qilingan” [10]. “Dastlabki vaqtlarda Germaniya ish beruvchilar va ishchilar o’rtasidagi munosabatlarni tartibga solish bo’yicha Angliya va Frantsiyadan ortda qolgan. Ammo, O.Bismarkning pensiya islohotlari va g’oyalari sabab, ijtimoiy himoya tizimi taraqqiyotiga zamin yaratilgan. 1889 yilda “Pensiya ta’minoti to’g’risida”gi Qonun qabul qilindi. Shu munosabat bilan O.Bismark tomonidan yaratilgan pensiya modeli “avlodlar birdamligi”ga asoslangan “taqsimlanuvchi” pensiya tizimini nazarda tutadi, ya’ni hozirgi pensionerlarning pensiyasi hozirgi ishlayotgan avlod tomonidan to’lanadi. Ushbu tizimning o’ziga xos jihati shundaki, bunda ijtimoiy sug’urta majburiy bo’lgan va badallarga asoslangan hamda ish beruvchilar ham, ishchilar ham uni moliyalashtirishda o’z ulushiga ega bo’lishlari lozim. O.Bismark tomonidan ishlab chiqilgan mehnat va pensiya sug’urtasi tadbirlari nisbatan puxta ishlab chiqilgan bo’lib, boshqa rivojlangan mamlakatlar ham uni o’z amaliyotida qo’llay boshladi va kelgusidagi ijtimoiy islohotlar uchun asos bo’lib xizmat qildi” [9].

XIX asrning oxirlarida Germaniya kantsleri Otto fon Bismark tomonidan ishchi va xizmatchilar uchun ijtimoiy sug’urtaga asoslangan taqsimlanuvchi (avlodlar birdamligi) pensiya tizimiga asos solindi. O’rtacha umr ko’rish yoshi 45-50 yosh (urushlar sabab) bo’lishiga qaramasdan pensiya yoshi 70 yosh etib belgilangan. Shu sababli xalq orasida mazkur tizim “marhumlar uchun pensiya” tizimi deb ham atalgan. Biroq, Bismark modeli orqali ijtimoiy sug’urtaning joriy qilinishi dunyo mamlakatlarida aholini ijtimoiy himoya qilish uchun yuqori samarali sug’urta tizimlarini yaratishga imkon berdi [11].



2-rasm. Jahonda pensiya ta’minoti tizimi modellari.

Shuni ham ta'kidlash joizki, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida jami aholi tarkibida keksalar soni katta ulushga ega bo'lmagan va davlat tomonidan ularni pensiya bilan ta'minlashda moliyaviy muammolar yuzaga kelmagan. O.Bismark modeli esa demografik omillarga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir.

Muhojirlarga maqsadli yordam ko'rsatishga mo'ljallangan pensiya tizimi Daniyada 1891 yilda va Yangi Zelandiyada 1989 yilda shakllandi va mazkur tizimni moliyalashtirish soliq tushumlari hisobidan amalga oshirilgan.

1908 yildan boshlab Buyuk Britaniya va Avstraliyada keksalarga davlat pensiyalarini to'lash boshlangan. "Frantsiyada 1910 yilda davlat pensiya ta'minoti tizimi shakllantirilgan va bunda pensiyaning miqdori fuqarolar tomonidan to'lanadigan sug'urta badallari va olgan ish haqi miqdoriga bog'langan hamda yollanib ishlayotgan ishchilarning majburiy pensiya sug'urtasi bo'yicha yoshga doir, nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari nazarda tutilgan" [12].

"Birinchi marta umumiy pensiya sug'urtasi qonuniy jihatdan Shvetsiyada 1913 yilda joriy qilingan. Biroq, qonun bilan belgilangan pensiya to'lovlari miqdori o'sha davrda ahamiyatli bo'lsa-da, kambag'allikdan holi bo'lish imkonini bermagan va qariyalarga g'amxo'rlik ko'rsatishning davlat tizimini yaratish zarurligini ko'rsatgan" [9].

Hozirgi zamonaviy pensiya tizimi Italiyada 1919 yilda, Kanadada 1927 yilda, AQShda 1935 yilda joriy qilingan. 1940 yildan boshlab pensiya to'lovlari amalga oshirilgan. 1941 yilda Yaponiyada, 1946 yilda esa Shvetsariyada pensiya ta'minoti tizimlari shakllangan.

"G'arbiy Evropa davlatlarining aksariyati o'z pensiya sug'urtasi tizimini Germaniya modeli asosida shakllantirgan. Angliya-Sakson (AQShdan tashqari) va Shimoliy Evropa davlatlari pensiya tizimini shakllantirishda Daniya va Yangi Zelandiya modellaridan foydalanishdi. Pensiya tizimining ushbu ikki turi turli vazifalarni bajarishgan. "Pensiya tizimining Germaniya modeli ishchining pensiyaga chiqqanidan so'ng uning ijtimoiy maqomini saqlab qolishga yo'naltirilgan bo'lsa, Angliyada joriy qilingan Daniya modeli esa kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan" [9].

Sh.K.Xamdamov ilmiy qarashlariga ko'ra pensiyalar fuqarolarning pensiya olish huquqi yuzaga kelganda uning moddiy ahvolidan qat'iy nazar tayinlanadi va nafaqa esa shaxsning moddiy muhojirligini va ijtimoiy holatini inobatga olgan holda tayinlanadi [13].

R.I.Belyayev fikricha xarbiy pensiy- mexnatga layoqatsiz shaxslarga ular malum yoshga yetganda nogiron bo'lib qolganda yoki uzoq muddatli kasbiy faoliyat tufayli boquvchisini vafot etganda davlat tomonidan muntazam va umrbod tayinlangan pul to'lovidir [14].

N.V.Tyutyunov ta'kidlashicha, xarbiy pensiyning anik tarifi qonunchilikda ko'rsatilmagan bo'lib uni huquqiy jixatdan mustaxkamlash uchun harbiy

xizmatchilarning pensiya taminotini to'g'risidagi qonunchilikd maqsadga muvofiq. Harbiy pensiya ikki tomonlama xususiyatgaega yani yo'qotidgan daromadlar uchun kompensiya hisoblanadi [15].

Tarixga etibor qaratsak Rossiyada asosan davlatga xizmat qilgan ofitserlar va harbiy xizmatchilarga berilgan. Rossiyada pensiya qonunchiligi Nikolay I davriga to'g'ri keladi. "Davlat pensiyalari to'g'risida"gi Qonun 1956 yil 14 iyulda qabul qilingan bo'lib, mazkur qonunchilikka ko'ra pensiyalar asosan davlatga xizmat qilgan ofitserlar va harbiy xizmatchilarga berilgan.

Umuman olganda olimlar fikriga ko'ra, harbiy pensiyalar har doim fuqarolarni harbiy xizmatga jalb qilishning asosiy omillaridan bo'lib kelgan [16].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 13 martdagi "Vatan himoyasi va el-yurtimiz tinchligi yo'lida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar va xodimlar oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-34-son Farmoni 6-bandida "Harbiy xizmatchilarning pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqish va 1 dekabrga qadar Vazirlar Mahkamasiga kiritish vazifasi belgilanib [2], mazkur hujjatning ijrosini ta'minlash maqsadida qonun loyihaci ikki versiyada "projekt.gov.uz" saytiga joylashtirilgan:

- qonun loyihasining birinchi bosqichi 2023 yil 05 aprel kuni ID-78254 (V-1) raqami bilan "Harbiy xizmatni o'tagan, ichki ishlar organlari va bojxona organlarida xizmat o'tagan shaxslar hamda ularning oilalarining davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonun loyihasi;


- qonun loyihasining birinchi bosqichi 2023 yil 11 iyul kundan ID-78254 (V-2) raqami bilan "Harbiy xizmatchilar (xodimlar) va ularning oila a'zolarining davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonun loyihasi muhokamaga qo'yildi.

Qonun loyihasining asosiy g'oyasi – Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy gvardiya, Davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati, Bojxona qo'mitasi va Elektron texnologiyalarni rivojlantirish markazining harbiy xizmat (xizmat) o'tagan oddiy askar, serjant va ofitserlar tarkibiga mansub kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilari (xodimlari)ni hamda ularning oilalarini pensiya bilan ta'minlashdir. Aynan shu g'oya amaldagi 1990 yil 28 apreldagi "Harbiy xizmatchilarning pensiya ta'minoti to'g'risida"gi 1467-I-sonli Qonunning zamiriga olingan bo'lib, o'z ahamiyatini bugungi kunga qadar to'la-to'kis saqlab kelmoqda.

Mazkur qonun harbiy xizmatchilarning pensiyasini yaxshilash maqsadidagi ijobiy sa'y – harakat bo'lib, loyiha bo'yicha kuzatuvchilar tomonidan qizg'in fikr-mulohaza sabab bo'ldi. Shu sababdan ushbu qonun loyihasini Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 13 oktyabrdagi 592-son qarori bilan tasdiqlangan "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida" Nizomi hamda Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 9 yanvardagi 11-son qaroriga tasdiqlangan "Sudyalar va ularning oila a'zolari pensiya ta'minoti shartlari, me'yorlari hamda tartibi to'g'risida" Nizomi kabi asosiy

tushunchalar keltirilib boyitish maqsadga muvofiq. Zero asosiy tushunchalar qonun xujjatlarda ijtimoiy munosabatlarga nisbatan to'g'ri qo'llashda zaruriy shart hisoblanadi va bir xil anglash va bir xil qo'lanilishi ijtimoiy munosabatlarni buzilmasligiga olib keladi.


Asosiy maqsadimiz harbiy pensiya ta'minotini takomillashtirish ekan xorijiy mamlakatlar tajribasidan foylanish maqsadga muvofiq. Harbiy xizmatchilarning pensiya ta'minotini takomillashtirish yuzasidan ayrim xorijiy mamlakatlar tajribasiga e'tibor qaratadigan bo'sak (3- rasm).



3-rasm. Xorijiy mamlakatlar va O'zbekistonda harbiy xizmatchilarning pensiya tayanch miqdorlari [17]

Yuqoridagi 3-rasm ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, bugungi kunda harbiy xizmatchilarning pensiyaning tayanch miqdori Qozog'iston (25 yil uchun), Rossiya Federatsiyasi (20 yil uchun), Ukraina (20 yil uchun), Moldova (20 yil uchun), Belarussiya (20 yil uchun) va Ozorbayjonda (20 yil uchun) **50 foizni**, Qirg'iziston (20 yil uchun) va Turkmaniston (25 yil uchun)da **55 foizni**, tashkil qilsa O'zbekistonda amaldagi qonun ko'ra yigirma yil xizmat o'tash uchun pensiyaning tayanch miqdori **40 foizni** tashkil etmoqda. E'tiborli jihati shundaki, o'rganilgan barcha mamlakatlar tajribasida harbiy xizmatchilarning pensiya ta'minotining tayanch miqdorlari 50 foiz va undan yuqori hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda hamda mamlakatimizda harbiy xizmatchilarni yanada rag'batlantirish, harbiy xizmatga bo'lgan munosabatlarni yaxshilash maqsadida mamlakatimizda ham harbiy xizmatchilarning pensiya ta'minoti tayanch miqdorlarini **50 foizga** kilib belgilash maqsadga muvofiq.

Xorijiy mamlakatlar va O'zbekistonda harbiy xizmatchilar pensiyasining umumiy eng yuqori miqdorlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak (4-rasm).



4-rasm. Xorijiy mamlakatlar va O'zbekistonda harbiy xizmatchilar pensiyasining umumiy eng yuqori miqdorlari [17].

4-rasm ma'lumotlariga ko'ra, pensiyaning umumiy eng yuqori miqdori AQSh, Armaniston va Ozarbayjonda ushbu raqam – 100 foizni, Qozog'iston va Rossiya Federatsiyasida – 85 foizni, Qirg'izistonda – 80 foizni, Ukraina, Moldova, Belarussiya va Turkmanistonda – 75 foizni tashkil qiladi.

O'zbekistonda hozirgi vaqtda xizmat o'tagan yillari uchun tayinlanadigan pensiyaning umumiy eng yuqori miqdori belgilangan pul ta'minotiga oid summa 75 foizni tashkil qiladi. Yuqoridagi o'rganilgan xorijiy mamlakatlar tajribasi hamda harbiy xizmatchilar rag'batlantirish maqsadida, O'zbekistonda pensiyaning umumiy eng yuqori miqdorini 85 foizga oshirish, shuningdek xizmat o'tagan yillari 35 va undan yuqori bo'lgan hollarda 100 foiz qilib belgilash maqsadga muvofiq (bundan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tasarrufidagi ayrim bo'linmalar mustasno).

Harbiy xizmatchilarning pensiya ta'minotini takomillashtirish maqsadida ilm-fanga, sportda erishgan yutuqlar hamda faxriy unvonlari (davlat mukofotlari)ga ega harbiy xizmatchilarga pensiyasiga ustama haqlari qo'shishniqonunga kiritilishiga taklif qilib asos qilib Rossiya Federatsiyasini 1993 yil 12 fevralya kunidagi "Xizmat o'tagan xarbiy xizmatchilarni va ularning oila a'zolarini pensiya ta'minoti to'grisida" gi qonunning 45-moddasi "a" va "b" bandlariga ko'ra halqaro sport ustalariga, Olimpiya(Paralimpiya, Surdlimpi) chempionlari va davlat mukofotlariga sazovor bo'lganlarga ustama haqlar qo'shilishini va O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi tomonidan 2019 yil 22 iyulda qabul qilingan Senat tomonidan 2019 yil 11 oktyabrda ma'qullangan "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi Qonun va Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 24 dekabrda 1030-son qaroriga ilm-fan va ta'lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo'shimcha haq to'lash tartibi to'g'risida Nizom hamda O'zbekiston Respublikasi faxriy unvonlari va davlat mukofotlariga egalari ustama

haqlar to'lashga Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 13 oktyabrdagi 592-son qarori "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida" NIZOMning (105 xatboshisi) asos bo'la oladi. keltirish mumkin.

Yuqoridagi o'rganilgan tadqiqotlar va tahlillarga tayangan holda mamlakatimizda harbiy xizmatchilarning pensiya ta'minotini takomillashtirish maqsadida quyidagi qonunchilikka taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Pensiya ta'minotiga oid masalalarni huquqiy tartibga solish orqali xizmat jozibadorligini oshirish, harbiy xizmatchilar pensiya masalasining sobiq Ittifoq davridagi eski Qonun bilan tartibga solinayotgani, uning ayrim moddalari amaldagi qonunchilikka zidligi sabab amaliyotda bu borada qiyinchiliklar yuzaga kelayotganligi sababli O'zbekiston Respublikasining "Harbiy xizmatchilar va ular oila a'zolarining pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonuniga o'zgartirishlar kiritish yoki yangi qonun hujjatini qabul qilish maqsadga muvofiq;

2. Amaldagi 1990 yil 28 apreldagi "Harbiy xizmatchilarning pensiya ta'minoti to'g'risida"gi 1467-I-sonli Qonunni yangilash va hozirgi zamon talablariga moslashtirish – harbiy xizmatchi pensionerlar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy ta'minotini kafolatlash, davlatimiz mudofaa va xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladi;

3. Xorijiy mamlakatlar tajribasini inobatga olgan holda O'zbekistonda harbiy xizmatchilarning pensiya tayanch miqdorlarini **50 foiz** belgilash;

4. O'rganilgan xorijiy mamlakatlar tajribasi hamda harbiy xizmatchilar rag'batlantirish maqsadida, O'zbekistonda pensiyaning umumiy eng yuqori miqdorini 85 foizga oshirish, shuningdek xizmat o'tagan yillari 35 va undan yuqori bo'lgan hollarda 100 foiz qilib belgilash maqsadga muvofiq;

5. Harbiy xizmatchilarning xizmat o'tagan yillari (kalendar yil):

- xizmat o'tagan yillari 20 yildan oshganda pensiya olish huquqidan foydalanish, bunda xizmat faoliyati davrida pensiyaning 50 foizini;

- xizmat o'tagan yillari 35 yildan oshganda pensiya olish huquqidan foydalanish, bunda xizmat faoliyati davrida pensiyaning 100 foizini belgilash fikrimizcha o'zining ijobiy natijasini beradi;

6. Harbiy xizmatchilarning pensiyaga ustama haqlar qo'shish:

- ilm-fanga qo'shgan xissasi uchun: fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) (yoki xorijiy mamlakatlarda ularga tenglashtirilgan darajalar) (keyingi o'rinlarda falsafa doktori deb ataladi) ilmiy darajasiga ega shaxslar uchun — yoshga doir pensiyani eng kam miqdorining 50 foiziga teng miqdorda; fan doktori (Doctor of Science) (yoki xorijiy mamlakatlarda unga tenglashtirilgan daraja) (keyingi o'rinlarda fan doktori deb ataladi) ilmiy darajasiga ega shaxslar uchun — yoshga doir pensiyani eng kam miqdorining 100 foiziga teng miqdorda

- sportga qo‘shgan xissasi uchun halqaro sport ustalariga, Olimpiya (Paralimpiya Surdlimpi) chempionlariga, yoshga doir pensiyani eng kam miqdorining 50 foiziga teng miqdorda;

- O‘zbekiston Respublikasi faxriy unvonlari va davlat mukofotlariga egalari qonunlarda belgilangan tartibda va miqdorda;

- ayni vaqtda esa pensiyani rasmiylashtirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo‘mondoni buyrug‘i bilan “Harbiy xizmatchilarning pensiya ishlarini rasmiylashtirish va yuritish Tartibi”ni tasdiqlash taklif maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.– Xalq so‘zi. 2017 yil 23-dekabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi // www.lex.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasi.
4. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 18 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-647 son qonuni. “Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi”, 19.11.2020 yil, 03/20/647/1569-son.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 5 sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi sobiq davlat bojxona qo‘mitasining boshliqlari tarkibiga kiruvchi xodimlarining xizmat muddatiga ko‘ra pensiyaga chiqishi tartibi to‘g‘risida”gi 450-son qarori.
6. A.Xaitov, K.Komilov, M.Ziyadullayev O‘zbekistonda pensiya ta’minoti: tajriba va istiqbol. T.: O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi. 2008 yil.
7. Роик В.Д. Социальное страхование в меняющемся мире: каким будет выбор России? – СПб.: Питер, 2014. – 352 с.
8. Каспарьянц Н.М. Пенсионное страхование: региональные аспекты (Краснодарский край): монография. Армавир: РИО АГПА, 2014. С. 17.
9. В.С.Маматов va b. Chet mamlakatlar pensiya tizimi. Darslik. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2019. – 25, 26, 27-b.
10. Федотов А. История возникновения пенсионных систем в зарубежных странах / А. Федотов // Труды ИСА РАН. – 2006. – № 23. – С. 308-316. (http://pnu.edu.ru/media/ejournal/articles-2015/TGU_6_174.pdf).
11. Роик В.Д. Экономика, финансы и право социального страхования: Институты и страховые механизмы / Валентин Роик. – М.: Альпина Паблишер, 2013. – 7 с.
12. Валентин Роик. Экономика, финансы и право социального страхования. Институты и страховые механизмы. – М.: «Альпина Паблишер», 2013. – С. 15 (- 258 с.).
13. Хамдамов Ш.К Холиқов Х.В Пенсия ва нафақа деференциацияси хусусида Ҳалқаро молия ва ҳисоб илмий журнали 2019йил 4-сон 96
14. Беляева Р.И “Пенсионное обеспечение”. Уч.мет.пособие- М.: Издательство “Перо”- 2017.с.5
15. Н.В.Тютюнов /Сущность и специфика пенсионного обеспечения российских военнослужащих
16. Тютюнов Н.В. Государственное пенсионное обеспечение военнослужащих и пути его совершенствования: автореф...дисс. канд.юрид.наук. Москва, 2012 г. - С.3.
17. Global internet tarmog‘i ma’lumotlari.

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING MA'DANIYATGA TA'SIRI

Tojiboyeva Feruza Usmon qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Maqolada ommaviy axborot vositalarining jamiyatga qanday ta'siri bo'layotgani, hayotimizdagi o'rni haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: axborot ommaviy madaniyat, internet, ommaviy axborot vositalari, media makon.

Ongli inson borki, hayoti davomida axborot oladi, uni idrok etadi yoki boshqalarga uzatadi. Hozirgi axborot vositalarining ma'lumotlarni juda tez yetkazib berishi, ularning ko'pligi, har tomondan "yog'ayotgan" informatsiyalar rosti kishi boshini gangitib qo'yadi. Yuqoridagi holatlardan tabiiyki, ma'lumotlarni faqat eng kerakli, muhimlarini saralab olish uchun ehtiyoj tug'iladi. Hozirgi rivojlangan zamonda ommaviy axborot vositalarini jamiyatimizni rivojlantiradigan, ilmiy sohalarni yanada yuksaltiradigan, shu bilan bir qatorda inson ongini mafkuraviy bir tarzda boshqara oladigan kuch desak hech mubolag'a bo'lmaydi. Mustaqil shaxs sifatida shuni ayta olamanki, hozirda axborotdan qurol sifatida foydalanish keng ommalashmoqda. Bunday qurol yordamida olib borilayotgan infarmatsion urushlarda insonning nafaqat ongi, balki qalbi ham nishonga olinmoqda. To'g'ri, bunday qurollar insonga jismonan zarba bera olmasa-da, ma'nan ongimizga ta'sir etib bir qancha qo'poruvchi kuchlardan-da, ko'proq zarar keltiryapti. Shu yo'l bilan ongimizni boshqarmoqchi bo'lyaptilar.

Ayni damda ommaviy axborot vositalariga keng imkoniyatlar eshigi ochilayotganligi, sharoitlar yaratilyotganligi ularga berilayotgan e'tibordan darak beradi. Senzuraga yo'l qo'yilmasligining konstitutsiyada belgilanganligi ham buni yorqin misolidir. "Senzuraga yo'l qo'yilmaydi. Ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi". (82-modda). [1].

Hozirda ommaviy axborot vositalarisiz hayotimizni tasavvur qila olmaymiz. Biz ularga o'rgandikmi yoki ular bizga moslashdimi buni aniq ayta olmayman, lekin shunisi aniqki, ulardan to'g'ri foydalana olgan inson nafaqat o'zida balki jamiyatda ham katta o'zgarishlar qila oladi. Masalan, so'nggi kitoblardan xabardor bo'lish, dunyodagi yangiliklar, sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni kuzatib, qadam-baqadam yurish har qanday umidsizlangan kishini ilm olishga ruhlantira oladi, yangi marralar zabt etishga chorlaydi. Menimcha, ommaviy axborot vositalari berayotgan axborotlarini qaysi tomonga yo'naltirishsa, madaniyatimiz ham o'sha tomonga qarab o'sadi. Aytaylik, bir kadr sahnasida g'arbga xos kiyingan ayolni ko'rgan yoki radioda mazmuni buzuq chet

el musiqasini tinglagan odam qaysidir ma'noda ulardan o'rnak oladi. Hayotida bunday holatni tabiiy qabul qila boshlaydi. Necha ming yillik qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizni o'stirish ham, yo'q qilish ham -hammasi o'z qo'limizda. Bilaman, balki hozir yozmoqchi bo'lgan satrlarim uchun kimdir mendan ranjir, balki bu yozayotganlarim faqat qog'ozlarda qolib ketar, lekin bu mavzudan ko'z yumib ketolmadim. Aslida, madaniyatimizni yer bilan bitta qilayotganlar, g'arb olami oqimini olib kirayotganlardan biri bu-televideniya. To'g'ri, shunday kanallar borki, faqat ilm orqali hordiq chiqarishga, fikrlashni kengaytirishga, hayotga teranroq nazar bilan qarashni o'rgatadigan ko'rsatuvlar qo'yadi va afsuski ular barmoq bilan sanarli, xolos. Ba'zi bir kanallardagi kinofilmlar esa faqatgina hayotiy-maishiy voqealar bilangina cheklanadi. Har xil tok-shoularni ko'rib yo yig'lashini, yo kulishini bilmaydi odam. Shunda menda yuragimni tig'laydigan bir savol paydo bo'ladi. Nahotki biz shu darajagacha yetib keldik?! O'z shaxsiy muommolarimizni omma oldida aytib nima topamiz?! Tanilib pul ishlashmi maqsad?! Bilmadim... Balki, hali yoshlik qilar bu bosh...

Tom ma'noda axborot asri odamlarni shoshirib qo'ymoqda. Zamonaviy axborot ilmi asoschilaridan biri bo'lgan mashhur Marshall Maklyuen o'tgan asrning 70-yillarida "har bir yangi axborot vositasi o'sha zamon kishilarini imtihondan, sinovdan o'tkazadi", deganida hali mobil telefon, internet, kompyuter odamzotning xayoliga ham kelmagan edi. Lekin ushbu dono bashorat naqadar to'g'ri ekanligini bugungi hayot, turmush tarsi har qadam, har lahzada ko'rsatmoqda, isbotlamoqda. [3].

Zamonaviy ommaviy axborot vositalari, televideniya, kompyuter, internet, uyali telefon va boshqa vositalar insonlar, ayniqsa, yoshlarning milliyligi, tafakkuri va dunyoqarashini o'zgartirib yuborayotgani hech kimga sir emas. Taraqqiy etgan mamlakatlarning mazkur vositalar yordamida jahon xalqlari ongi dunyoqarashi va turmush tarzini bir qolipga solish hamda unga o'zlari shakllantirayotgan "ommaviy madaniyat"ni singdirish bosh strategik siyosatga aylantirayotganligida to'liq namayon bo'lmoqda. [2]. Internet odamning ongi va hissiyotlariga, tafakkur tarziga, xulq-atvorga ta'sir ko'rsatishda ulkan imkoniyatga ega. Internetning bugungi kundagi rivoji g'oyaviy ta'sir o'tkazishning miqyosi va ko'lamining keskin darajada o'sishiga olib keldi. Internet bugungi axborot makonining muhim bo'g'iniga aylandi. Shu bilan birga, internet hayotimizning ajralmas bir qismiga aylanib borayotganligi ham ayni haqiqatdir. Bugungi kunda ikki milliarddan ortiq inson u yoki bu darajada undan foydalanishi ham mazkur fikrlarning to'g'riligini isbotlaydi. O'zbekistonda internet xizmatidan foydalanuvchilar soni-22,1 milliondan oshdi. Shundan mobil internet foydalanuvchilar soni -19 millionni tashkil qilmoqda. 26 mingga yaqin "Uz" domenidagi veb-saytlar faoliyat olib bormoqda. 200dan ortiq veb-sayt ommaviy axborot vositasi sifatida ro'yxatga olingan. [3].

Hayotimizdagi bugungi ulkan o'zgarishlar, islohotlarimiz mantig'i barchadan ishlashni yangi g'oya va tashabbuslar bilan maydonga chiqishni talab qilmoqda. Shu

ma'noda ommaviy axborot vositalarining moddiy-texnik bazasini, kadrlar salohiyatini mustahkamlash, milliy matbuotimiz xalqaro maydonda munosib o'rin egallashiga erishish, internet jurnalistikasini rivojlantirish, noshirlik ishi, kitob savdosi, obuna masalalarida bozor mexanizmlarini keng joriy etish, ochiqlik va sog'lom raqobat muhitida ishlashni yo'lga qo'yish bo'yicha ko'p ishlashimiz kerak.[4].

Bir talaba sifatida shuni ayta olamanki, bizning oldimizdagi dolzarb vazifa ommaviy axborot vositalaridan to'g'ri foydalanib, avvalo, o'zni so'ngra ummatni, jamiyatni yuksaltirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, (yangi tahriri 30.04.2023).
2. Lutfullayev.A. Jabborov.E."Ommaviy axborot vositalarining inson va jamiyat hayotidagi ta'siri hamda axborot xurujlari".
3. Xurshid Do'stmuhammad. "Axborot madaniyati hayot-mamot masalasi". Xalq so'zi.
4. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga Prezident Shavkat Mirziyoyev tabrigi. 2019-yil, 27-iyun.
www.qalampir.uz.

QARAQALPAQSTANDA AKADEMIYALIQ VOKAL JÓNELISI

Jumamuratova Aysaule Aralbay qızı

Ózbekstan Mámleketlik Konservatoriyası Nókis filiali

“Ulwma kásiplik hám social-gumanitar pánleri kafedrası”

“Muzikatanıw” qánigeligi 2-kurs student

Ilimiy basshı: Kamalova G.M

Annotaciya: Bul maqalada Vokal jónelisi hám onıń túrleri haqqında jánede, Qaraqalpaqstan muzika mádeniyatına kirip keliwi, bul jónelistiń rawajlanıwına sebepshi bolǵan insanlar haqqında maǵlıwmat berilgen. Bunda Qaraqalpaqstanda iri janrlardıń payda bolıwı hám birinshi akademiyalıq vokal atqarıwshıları sóz etiledi.

Gilt sózler: muzika, vokal, ansambl, xor, koloroturalı soprano, tenor, bariton, bas, qosıq, romans, opera, balet, muzikalı drama, komediya, kompozitor, melodist, drijyor, baqsı, jıraw, sázende.

Аннотация: В данной статье представлена информация о вокальном направлении и его видах, а также о людях, которые способствовали развитию этого направления и внедрению его в музыкальную культуру Каракалпакстана. Отмечается появление крупных жанров и первых академических вокальных исполнителей в Каракалпакстане.

Ключевые слова: музыка, вокал, ансамбль, хор, колоратурное сопрано, тенор, баритон, бас, песня, романс, опера, балет, музыкальная драма, комедия, композитор, мелодист, дирижер, бакши, жиров, сазенде.

Abstract: This article provides information about the vocal direction and its types, as well as about the people who contributed to the development of this direction and its introduction into the musical culture of Karakalpakstan. The emergence of major genres and the first academic vocal performers in Karakalpakstan is noted.

- Aqliy mehnat mahsuli (ixtiro, nou-xau, texnologiya, loyiha, amaliy dasturlar majmuasi va hokazo);
- Iste'mol va ishlab chiqarish ehtiyoji uchun xizmatlar (transport, aloqa, saqlash, sotishgacha va sotishdan keyingi xizmatlar, ta'lim, sog'liqni saqlash, maishiy va hokazo);
- Nomoddiy aktivlar (tovar marka va belgilari);
- Mulkiy huquqlar (aksiya va boshqa qimmatli qog'ozlar, mualliflik huquqi, yer va binolarga bo'lgan mulk huquqi va hokazo).

Marketing xizmati kompaniya tovarlarini bozorga olib chiqish bilan bog'liq marketing vazifasidir. Marketing bo'yicha nashr etilgan ilmiy adabiyotlarda, marketing xizmati (inglizcha "marketing services" ya'ni "bozor xizmatlari" so'zidan olingan) – zamonaviy marketing fani tarmog'i bo'lib, foyda olish maqsadida, kompaniyalarning biznes bo'yicha marketing faoliyatini o'rganishdan va ularga xizmat ko'rsatishdan iboratdir degan ta'rif berilgan. Marketing xizmati ko'rsatish bozor subyektlarini siyosati, moddiy tovarlar ishlab chiqarish va sotish faoliyati bilan shug'ullanadigan kompaniyalarning marketing siyosatidan sezilarli darajada farq qiladi. Bu birinchi navbatda, "ishlab chiqarish" yoki xizmat ko'rsatishning o'ziga xos xususiyati bilan bog'liq.

Xizmatning o'ziga xosligi, u xizmat xaridori (foydalanuvchisi) va xizmat ishlab chiqaruvchi (ko'rsatuvchi)si o'zaro munosabatga kirishganda yoxud bog'langandagina vujudga keladi. Marketing xizmati mazmunan boshqa xizmatlardan farq qilib, xizmatlar marketing dasturini ishlab chiqishga ta'sir ko'rsatuvchi quyidagi asosiy xususiyatlarga egaligi ko'rsatib o'tiladi:

nomoddiylik - ko'rsatish, ko'rish, tatib ko'rish, tashish, saqlash, qadoqlash yoki o'rganish mumkin emas. Bularning barchasi faqat yakuniy natijaga nisbatan mumkin (bu bo'lgan - bu);

ajralmaslik - xizmat faqat buyurtma kelganda yoki mijoz paydo bo'lganda taqdim etilishi mumkin, ya'ni. xizmatlar bir vaqtning o'zida taqdim etiladi va iste'mol qilinadi;

o'zgaruvchanlik (standartlashtirilmagan) - mijozlar xizmat ko'rsatish jarayonining bevosita ishtirokchilari bo'lib, uning yakuniy natijasiga ta'sir qiladi;

saqlash imkoniyatining mavjud emasligi - moddiy ne'matlardan farqli o'laroq, ularni kelajakda foydalanish uchun ishlab chiqarish mumkin emas.

Marketing xizmatining maqsadi, bizning fikrimizcha, firmalarning ishlab chiqarayotgan tovarlari va ko'rsatilayotgan xizmatlarining iste'molchilar tomonidan yuqori baholanishi, muntazam foydalanishi, foydalanishdagi qulaylik va ustunliklar hisobiga bozordagi ulushini ortib borishi va pirovard natijada yuqori foydalilik darajasini ta'minlashga qaratilgan moddiy va intellektual harakatlarni amalga oshirishdan iborat.

Jumladan,

- Iste'molchi yoxud xaridorlarning sotib olingan tovar va ko'rsatilgan xizmatlardan qoniqishi;
- Doimiy mijozlarga ega bo'lish va ular geografiyasini kengaytirish;
- Tovar va xizmatlarning qadr-qiyamatini oshirish;
- Tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sifatini oshirish;
- Tovarlarini sotish va xizmat ko'rsatishdan olinadigan foyda va uning o'sishi.

Hozirgi sharoitda marketing xizmati ko'rsatuvchi firma va kompaniyalarda tobora takomillashib borayotgan xizmat turlari taklif etilmoqda. Jumladan,

- Tovar va xizmatlar bozori tadqiqotlari;
- Bozor holati va uni rivojlanish tendensiyalarini aniqlash;
- Bozor konyunkiurasi tahlili;
- Bozordagi raqobat muhiti tahlili;
- Bozorni segmentlash va biznes hamkorlarni izlash;
- Narxlar monitoringi, tahlili va sharhi;
- Tashqi bozorni o'rganish va boshqalar.

“Marketing xizmatlari” bo'yicha marketing fani taromog'i sifatida olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida, mualliflar fikricha “marketing xizmatlari” – tovar va xizmatlar bozorini tashkil etilishi va bu jarayonda ishlab chiqaruvchi, vositachi, sotuvchi tomonidan tovarlarni chakana savdoga yetkazish, sotishga namoyish etish, reklama qilish, xaridor bilan munosabatlarni o'rnatish, sotish va qo'shimcha xizmatlarni tashkil etish jarayonlari tushuniladi hamda xizmat ko'satuvchi (ishlab chiqaruvchi) va iste'molchi tomonidan amalga oshiriladigan hatti-harakatlar

majmuasidan iborat.

Yuqorida bayon etilgan ilmiy mulohazalarga asoslanib, milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish, to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalari eksport imkoniyatlaridan samarali foydalanishda marketing xizmatlarini tashkil etish va amaliyotga joriy qilishning ilmiy-uslubiy asoslariga e'tibor qaratish orqali, marketing xizmatlarini rivojlantirishni ilmiy jihatdan ahamiyatini kuchaytirish, ilmiy-tadqiqotlarni kengaytirish va o'quv-uslubiy qo'llanma hamda adabiyotlar tayyorlab marketing ixtisosligi talabalariga o'qitishni joriy etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston-2030 strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli farmoni.
2. Гарри Беквит Продавая незримое, Руководство по современному маркетингу услуг. М.:Альпина Паблицер, 2022.-220 с.
3. Котлер Ф. Маркетинг. Менеджмент: экспресс-курс / Ф. Котлер. – СПб.: Питер, 2008. – 480 с
4. Воробьева И.В. и др. Международный маркетинг : учебник и практикум для вузов ; под редакцией И. В. Воробьевой — Москва : Издательство Юрайт, 2020. — 398 с.
5. Голубков Е.П. Что такое маркетинговая политика.Маркетинг в России и за рубежом.2011-№6
6. Багиев Г.Л. Маркетинг / Г.Л.Багиев. – М.: ОАО «Изд-во «Экономика», 2010. – 410 с.
7. Новаторов Э.В. Маркетинг услуг: теория и технология. Монография, СПб, ИП Петров Д.А., 2015 г. 200 стр.
8. Воронкова, О.В. Маркетинг услуг : учебное пособие / О.В. Воронкова, Н.И. Саталкина. – Тамбов : Изд-во ФГБОУ ВПО «ТГТУ», 2011 г. 92 стр.
9. Солиев А.,Бузрукханов С. Маркетинг. Дарслик, Т.- 2010.
10. <https://uzts.uz>
11. www.namstat.uz

**O‘ZBEK TILIDA O‘QUV LUG‘ATLARI VA ULARNI
TUZISHGA DOIR BA‘ZI MULOHAZALAR**

Yusupov Sardor Shodi o‘g‘li

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida stajyor-o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada leksikografiya ning shakllanish va rivojlanish jarayoni, lug‘atlarni tuzish tamoyillari, o‘quv lug‘atlarini tuzishga xos xususiyatlar haqida fikr yuritilgan. O‘quv lug‘atlarini tuzishda yangi tamoyillarni qo‘llash bo‘yicha takliflar berilgan hamda o‘quv lug‘atlarining o‘quvchilar uchun foydali tomonlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Leksikografiya, lug‘at, o‘quv lug‘ati, lug‘at tuzish tamoyillari, lug‘at turlari.

Abstract. This article discusses the formation and development process of lexicography, the principles of creating dictionaries, and the specific features of creating educational dictionaries. Proposals for the application of new principles in the compilation of educational dictionaries are given, and useful aspects of educational dictionaries for students are shown.

Key words. Lexicography, vocabulary, educational vocabulary, principles of vocabulary creation, types of vocabulary.

O‘zbek tilida leksikografiya va lug‘atchilik an‘analarining shakllanishi va rivojlanishi Markaziy Osiyoda uyg‘onish davri bo‘lgan IX-XII asrlarga borib taqaladi. Bu davrda Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud az-Zamaxshariy, Mahmud Qoshg‘ariy kabi olim va mutafakkirlar o‘z asarlarida ayrim sohaga oid so‘zlar, jumladan, tib ilmiga, astronomiyaga, onomastika(nomshunos)ga oid so‘zlarni lug‘at ko‘rinishida keltirib o‘tgan. Ushbu namunalar hozirgi kundagi lug‘at tuzish shartlari va qoidalariga to‘liq mos kelmasa-da, o‘zbek lug‘atchiligining asosini tashkil etadi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasida lug‘at quyidagicha ta‘riflanadi:

“Lug‘at - 1) muayyan tilda, uning hududiy yoki ijtimoiy lahjasida mavjud bo‘lgan, u yoki bu yozuvchi asarlarida uchraydigan so‘zlar yig‘indisi, leksika;

2) so‘zlar (yoki morfemalar, so‘z birikmalari, iboralar va boshqa muayyan tartibda (alifboli, uyali, mavzuli) joylashtirilgan, tavsiflanuvchi birliklar, ularning kelib chiqishi, ma‘nolari, yozilishi, talaffuzi, uslubiy mansubligi, boshqa tillarga tarjimai haqida ma‘lumotlar jamlangan kitob.” [2:208] Ushbu ta‘rifdan kelib chiqadigan bo‘lsak, bugungi kunda jahon va o‘zbek tilshunosligida lug‘atlarning turlari judayam xilma-xildir.

Leksikografiya (lugʻat tuzish nazariyasi va amaliyoti) sohasi miloddan avvalgi davrlarda paydo boʻlganligi haqida maʼlumotlar keltiriladi va taʼlim-tarbiya sohasi xizmat qilib keladi.

“Yaratiladigan har bir lugʻatning asosini didaktik tamoyil belgilaydi. Lugʻat tuzishda didaktik tamoyilni chetlab oʻtish mumkin emas.

Lugʻatlar tildagi soʻzlarni oʻqitish-oʻrgatish, boshqa tillarga oid soʻzlar haqida, birliklar haqida maʼlumotlar berar ekan, demak, lingvodidaktik tamoyil muhim.

Lugʻat tuzishning asosiy tamoyillaridan biri maqsaddan kelib chiqqan holda lugʻat birliklarini tanlash-saralab olish tamoyili.

M.Qoshgʻariy oʻz lugʻati (“Devonu lugʻotit-turk”) uchun “umumisteʼmolda boʻlgan soʻzlarni tanladim” deydi.

Shu tamoyilga aloqador boʻlgan yana bir tamoyil, bu maqsadga muvofiq tuziladigan, lugʻatdan kelib chiqadigan ehtiyojni qondirishga muvofiqlikni taʼminlash tamoyili. “X va H harflari tarkibida boʻlgan soʻzlar lugʻati”, “Paronimlar lugʻati” kabilar.” [1:12]

Leksikografiyadagi eng muhim va umumiy tamoyillardan biri lugʻatdan foydalanishning qulayligini taʼminlash. Hamma lugʻatlar tuzilishidan qatʼi nazar, shu tamoyilga amal qilingan holda tuziladi: alifbo asosida tuzish, mavzu boʻyicha guruhlariga ajratish. Morfem, terminologik va boshqa lugʻatlar shu tamoyil asosida yaratiladi.

“Berilgan materialning aniqligi, toʻgʻriligi va toʻliqligini taʼminlash tamoyili - imlo, orfoepik, sinonim, omonim, antonim, frazema, paremlar lugʻatlari shu tamoyilni ham nazarda tutib tuziladi. Masalan, imlo lugʻati soʻzni toʻgʻri yozishni taʼminlashni nazarda tutib tuzilgan.

Til va nutq meʼyorlariga amal qilish tamoyili. Umumiy va xususiy meʼyorlarni nazarda tutuvchi lugʻatlar: dialektal, eskirgan soʻzlar, okkazonal birliklar lugʻatlari kabilar.

Oʻquv lugʻatlarida alohida ahamiyat kasb etuvchi taʼlimiy tamoyil. Bu tamoyil oʻquvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirish, til boʻyicha koʻnikmalarini hosil qilishda ahamiyatli.

Oʻquv lugʻatida, alohida ahamiyat beriladigan tarbiyaviy tamoyil muhim. Bunday lugʻatda maʼnaviy-axloqiy, estetik tarbiya kabilar koʻzda tutilgan boʻladi.” [1:13]

Yuqorida keltirilgan tamoyillar har bir lugʻat turining originalligini taʼminlash uchun xizmat qiladi. Bular ichida oʻquv lugʻatlari tuzish uchun asosiy tamoyil sifatida tarbiyaviylik tamoyili koʻrsatilgan. Bilamizki, oʻquv lugʻatlari oʻquvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib tuzilishi zarur. Bizning fikrimizcha, oʻquv lugʻatlari oʻquvchini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgani uchun yana bir necha tamoyillarni qamrab olishi muhimdir:

1. Tushunarlik tamoyili. Bu tamoyil oʻquv lugʻatlarida berilayotgan soʻzlarni sodda va oʻquvchiga tushunarli qilib berishni tavsiya etadi.

2. Ko'rsatmalilik tamoyili. Bunda har bir so'zni izohlashda turli xil rasmlar, shakllardan foydalanishni nazarda tutadi.

3. AKT bilan uyg'unlik tamoyili. Hozir axborot uzatish vositalrining rivojlanganligini nazarda tutib, o'quv lug'atlarning elekton variantlarini yaratish, audio va video ko'rinishida axborotlar yaratish va ularning havolalarini o'quv lug'atlarida keltirishni zarur deb biladi.

O'quv lug'atlarini o'rganishga jahon tilshunosligida alohida e'tibor qaratilib kelinadi. "O'quv lug'atlarini ilmiy asosda o'rganish XVII asrda birinchi ingliz leksikografi S.Jonson, XIX asr boshlarida fransuz tilshunoslari J.Dyubua, K.Dyubua, G.Matore, K.Bak, ispan tilshunosligida Y.Malkil ishlaridan boshlanadi. Keyinchalik rus tilshunosligida leksikografiyaning bu tarmog'ini takomillashtirish davlat ahamiyatidagi masala sifatida kun tartibiga qo'yiladi. Ana shu xatti-harakatlar samarasi o'laroq rus o'quv lug'atchiligi yuqori pog'onaga ko'tariladi va ulkan yutuqlarni qo'lga kiritadi. Bunda P.N.Denisov, L.A.Novikov, S.G.Barxudarov, V.V.Morkovkin, Y.N.Karaulov, M.A.Skopina, V.N.Sergeyev, V.A.Redkin, A.V.Tekuchev, Z.A.Potixa, D.E.Rozental kabilarning xizmatlari katta bo'ladi." [4:1] Bundan keyingi yillarda ham ushbu yo'nalishdagi ishlar to'xtab qolgani yo'q. O'quv lug'atchiligi hozirgi kunda leksikografiyaning tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. V.V.Morkovkin tilshunoslikdagi lug'atlarni ikki turga - antroposentrik va lingvosentrik kabi turlarga ajratgan.

"Antroposentrik lug'atlarda asosiy urg'u inson ongida tilni yoritish, undan to'g'ri va samarali samarali foydalana olishga yordam berishdir. Lingvosentrik lug'atlarda til asosiy markazda bo'lib, asosiy vazifasi ushbu tildagi faktlarni yoritish hisoblanadi. Hozirda o'quv lug'atlari antroposentrik xususiyatga ega bo'lgan lug'atlar tipiga kiritilmoqda. O'quv lug'atlari ta'lim sohasi uchun mo'ljallangan bo'lib, bu turdagi lug'atlar o'quvchilarga nafaqat so'z boyligini kuchaytirish, nutqiy yoki yozma savodxonligini oshirish balki ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini o'stirish va dunyoqarashini kengaytirish uchun ham xizmat qiladi." [3:1]

O'zbek tilshunosligida ham o'quv lug'atlari sohasida bilan bir qator olimlar izlanish olib borganlar. Jumladan, Baxtiyor Mengliyev bilan birgalikda B.Bahriddinova "O'zbek tilining so'z tarkibi o'quv lug'ati" ni tuzdi. Bu lug'at o'zida so'zlarni asos va qo'shimchlarga ajratishni o'quvchilarga o'rgatish uchun qulayligi bilan ahamiyatlidir. Undan tashqari T.Nafasov, V.Nafasova, D.Shodmonova, U.To'rayeva, X.Norxo'jayeva kabi olim ham o'quv lug'atlarini tuzishda katta xizmat qildilar.

Shunday qilib, yangi tez rivojlanayotgan dunyoda o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishning yangi usullarini qo'llash kun talabiga aylanib bormoqda. Shunday jarayonda bilimlarni o'quv lug'atlari asosida yetkazish yanada samarali bo'ladi. Chunki lug'atlar ma'lumotlarni tez ilg'ab olish uchun, mavzularni mustaqil o'zlashtirishda ham qulay vositadir. Bundan tashqari o'quv lug'atlari zamonaviy

o‘qitish usullari bilan qo‘llanilganda o‘quvchilarning orfografik, orfoepik bilimlarini, dunyoqarashining shakllanishiga shakllantirishiga beminnat manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sul-tonbek Normamatov. Leksikografiya asoslari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2020. 124 b.
2. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12 жилдли. – Тошкент: ЎЗМЭ нашриёти, 2000-2006.
3. O‘quv lug‘atlari tushunchasining tasnifiy belgilari D.B.Xusanova Termiz davlat universiteti magistranti
4. O‘quv lug‘atlarining nazariy asoslari. Murtazayev G‘olib. Qarshi davlat universiteti. Lingvistika: o‘zbek tili yo‘nalishi 2-kurs magistrant Innovative Development in Educational Activities
5. www.arxiv.uz

**JINOYAT PROTSESSIDA ISHTIROK ETISHNI RAD ETISH
ASOSLARINING YURIDIK TAVSIFI**

Durdubaeva Nargiza Muratabaevna

Annotatsiya. Ushbu maqolada jinoyat protsessida ishtirok etishga monelik qiladigan holatlar va rad etish tushunchasi hamda rad qilish institutining mazmun mohiyati va rad etish asoslarini takomillashtirish masalalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Jinoyat protsessi, rad qilish, monelik qiluvchi holatlar, sudya, proruror, tergovchi, xalq maslahatchisi, guvohlar, himoyachilar,

Аннотация. В данной статье рассматриваются обстоятельства, препятствующие участию в уголовном процессе и понятие отказа, сущность института отказа и вопросы совершенствования оснований отвода.

Ключевые слова: Уголовное производство, опровержение, воспрепятствование, судья, прокурор, следователь, общественный защитник, свидетели, защитники

Annotation. This article examines the circumstances that prevent participation in the criminal process and the concept of refusal, the essence of the institution of refusal and the issues of improving the grounds for refusal.

Key words: criminal proceedings, rebuttal obstruction, judge, prosecutor, investigator, public counsel, witnesses, defense attorneys

Shaxsning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish jinoyat sud protsessining asosiy vazifasi hisoblanadi. Xolis adolatli va obyektiv jinoyat protsessining kafolatlaridan biri milliy qonunchiligimizda rad qilish va o`zini o`zi rad qilish institutining kiritilishi hisoblanadi. U shaxslarning manfaatlarini tergovdan va jinoyat ishiga ruxsat berishdan kompleks himoya qilish bo'yicha choralardan tarkib topgan. Ko'pchiligi jinoyat ishi bo'yicha tergovchining ob'ektivligidan shuningdek mohiyatan ko'rilayotgan hal qilishga noxolis munosabatda bo'lish ishning sifatini mohiyatan pasaytiradi va faqatgina aloxida olingan organning yoki mansabdor shaxsning emas boshqa huquqni muxofaza qiluvchi tizimlarning tulaligicha, fuqarolarning davlat organlariga negativ munosabatlariga olib keladi.

Jinoyat protsessida sud va boshqa ishtirokchilarning xolisligini ta'minlovchi bir qancha protsessual vositalar mavjud. Lekin shunga qaramasdan ishning ko'rilishidan oz shaxsiy manfaatni ko'zlovchi ishtirokchilardan xalos bo'lish mexanizmining asosini rad qilish instituti tashkil qiladi. Ish bo'yicha haqiqatni aniqlash, qonuniy, asosli va adolatli sud qarorini qabul qilish uchun eng muxim protsessual vositalardan biri hisoblanadi.

Jinoyat-protsessual faoliyatda o'zlariga berilgan huquqlardan foydalanish, hamma vazifalarni bajarish orqali ishtirok etadigan davlat organlari, mansabdor

shaxslar, fuqarolar, jamoat birlashmalari, jamoalarning vakillari jinoyat protsessining ishtirokchilari hisoblanadilar. Jinoyat protsessining har bir ishtirokchisi o'ziga mos vazifani, ya'ni o'z faoliyat yo'nalishini ifoda etuvchi xizmat burchini o'taydi. Bu vazifaning xususiyati protsessning mazkur ishtirokchilari bajaradigan vazifalarga va ularning muhofaza qilinadigan manfaatlariga bog'liq holda belgilanadi.

Shu o'rinda mo'nelik qilish tushunchasiga etibor qaratsak, o'zbek tilining izohli lugatida mo'nelik qilish tushunchasi lug'aviy manbalarda "mo'ne" so'zi – (arabcha) man etuvchi, to'siq bo'luvchi, to'siq, g'ov, to'sqinlik, qarshilik qiluvchi man etuvchi ma'nosini; monelik so'zi - to'sqinlik, qarshilik qilish, mo'ne bo'lish, yo'l qo'ymaslik ma'nosini manosi anglatadi.

Shuningdek «rad qilish» tushunchasi muayyan narsani, holatni, hodisani inkor etish, qaytarish, qabul qilmaslik, taklifni rad etish, unga qarshilik qilishni anglatadi. Shuningdek, «raddiya - arabcha so'z bo'lib, u biror xabar yoki ma'lumotni inkor qilish, uning notog'ri va asossiz ekanligini isbot qiluvchi rasmiy bayonat» hisoblanadi. Boshqa manbada, «raddiya - arabcha so'z bo'lib, u biror hodisa yoki ma'lumotni inkor etuvchi, uning yolg'on va asossiz ekanligini isbot qiluvchi rasmiy hujjat» hisoblanadi. Rad qilish instituti qollash yordamida dastlabki tergov va sud muhokamasining xolisligi va begarazligi ta'minlanadi.

Rad qilish - sudyani, xalq maslahatchisini, qasamyod qilgan maslahatchining, prokurorni, tergovchini, sud majlisi kotibini, ekspertni yoki tarjimonni ishning natijasidan shaxsan (tug'ri yoki egri) manfaatdorligi yoxud ularning xolisligiga shubha tug'diradigan boshqa sabablar tufayli ishni muhokama qilinishidan chetlashtirishni anglatadi. Rad qilish (yoki raddiya berish) muayyan holatlar, shart-sharoitlar hamda asoslar mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan holat va shartlarning asoslari jinoyat-protsessual qonunchiligida aniqlab berilgan. Mazkur institutning jinoyat sudlov yurituvida mavjudligi qonun chiqaruvchining shunday protsessual-huquqiy normani joriy etishdan maqsadi bevosita jinoyat protsessi ishtirokchilarining qonuniy manfaatlarini real tarzda ta'minlash va ularni noqonuniy cheklashlardan muhofaza qilishdan iborat.

Albatta, bular rad qilishning asosiy elementlari hisoblansada, ammo, uning yana bir elementi mavjudki, u ham rad qilish strukturasi muhim o'ringa ega. Bu - rad qilish uchun asoslar mavjud bo'lganda o'zini o'zi rad qilishdir. Negaki, o'zini o'zi rad qilish jinoyat protsessida ishtirok etishga monelik qiladigan holatlar mavjud bo'lganda, sub'ektning o'zini o'zi rad qilishga oid axloqiy-huquqiy va aqliy-psixologik jihatlarining namoyon etilishiga tayanadi hamda ushbu ishtirokchi o'zini o'zi rad qilish haqida sudga iltimosnoma bildirishi lozim.

V.G.Zaderakoning fikricha, o'zini o'zi rad qilish - bu jinoyat-sudlov yurituvida muayyan holatlar mavjud bo'lganligi bois, ishda ishtirok etishiga mo'nelik qiladigan sub'ektlar tomonidan rad qilish masalasini hal qiluvchi vakolatli shaxsga o'zining nima sababdan ishda ishtirok eta olmasligini asoslagan holda ariza bilan murojaat qilishidir.

Shu bilan birga, rad qilish instituti bilan bog'lik holatlar va shartlarni aniqlashda jinoyat protsessida rad qilinishi mumkin bo'lgan sub'ektlar doirasi aniqlash lozim. Bundan tashqari rad qilinishi mumkin bo'lgan shaxslar nafaqat jinoyat ishini yurituvchi vakolatli shaxslar bo'lishi mumkin, balki sodir etilgan jinoyat yuzasidan barcha holatlarni aniqlash maqsadida jinoyat ishiga jalb qilinadigan boshqa shaxslar ham rad qilinishi mumkin. O'zini o'zi rad qilishi zarur bo'lgan ishtirokchi rad qilish huquqiga emas, balki o'zini o'zi rad qilish majburiyatiga egadir.

M.Kazarinning fikricha ishni yolg'iz ko'rayotgan sud'yaga rad qilish haqida murojat qilinganida rad qilish uchun shaxs tomonidan hal qilinishi kerak, masalan tegishli sud raisi tomonidan. Faqat shundagina sud'yani rad qilish va o'zini o'zi rad qilish, noxolis sud'yaning mustaqil sud'ya bilan almashtirilishi sudlarning mustaqilligining prosessual kafolati taminlanadi.

Bundan tashqari Ye.Martinchikning fikricha sud'yaning manfaatdorligining mavjudligi ularning jinoiy ishni kurib chiqishini man etishni anglatadi. Shaxsiy manfaatdorlik sud'yaning vazifalari va kasbiy burchidan kelib chiqadigan yoki shaxsiy, jamoat manfaatlaridan ajralib turishi kerak deb hisoblaydi.

Bizning fikrimizcha rad qilishni qonunda belgilangan holatlar bilan bir qatorda sud'yaga ishonchsizlikdan kelib chiqadigan boshqa turdagi holatlarni diskvalifikasiya qilish uchun asoslar sifatida tan olish zarur. Shunki sud tergov amaliyotida rasmiy ravishda qonun doirasiga tug'ri kelmagan lekin aslida sud'yaning ishda ishtirok etish imkoniyatini moxiyatan istisno qilagan holatlar ham uchrab turishini inobatda olsak u sud'yaning rad etilishi sababini uning guman qilinayotganligini va buni shunday holat mavjudligini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi JPK jinoyat protsessining aksariyat ishtirokchilari ish yuritilishida ishtirok etishi mumkin bo'lmagan holatlarni nazarda tutadi. Ularni qonunda belgilangan hollarda protsessdan chiqarib tashlash ishning xolisona o'rganilishini va mohiyati bo'yicha hal etilishini kafolatlaydi.

Xulosa qilib aytganda amaliyotda yuz berayotgan muammolar tahlili shuni ko'rsatadiki, jinoyat protsessida ishtirok etishni rad qilish uchun asoslar va ishni ko'rib chiquvchi shaxslarni protsessda ishtirok etishni man etuvchi holatlarni yanada takomillashtirish lozimligini taqoza etadi. Shuningek ishni ko'rib chiquvchi shaxslarning beg'arazligiga shubha tug'diruvchi holatlar tushunchasi ham toliq oshib berilmagan va ushbu tushunchalar yuzasidan aniq korsatmalar yaratilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ампеннов.С.С, *Обстоятельство исключают участие в уголовном судопроизводстве.* /diss.rsl.ru Тюмен 2010
2. Казарин М.А. Отвод и самоотвод как гарантия незасимисти судьей Вестник Томского государственного института 2020. № 459. С. 235–241. DOI: 10.17223/15617793/459/29

3. Таран.А.С судебная практика: Недоверие как основание суда/ Актуальные проблемы российского права. 2021. Т. 16. № 5 (126).
4. М.Ниязов. Жиноят процессида рад килиш институтининг ривожланиш асослари. “НОШИР” Тошкент 2013 й. -18 б
5. Х.Мамедова: Институт отводов В советском уголовном судопроизводстве. diss.rsl.ru - Москва: 2006. - С. 35.
6. Ўзбекистон Республикаси Жиноят процессуал кодекси. “Yuridik adabiyotlar publish” Toshkent, 2022 у, 58 б.
7. Рибкова К.О. Об унификации в различных видах судопроизводства порядка разрешения отвода (самоотвода) судьей, рассматривающим дело единолично, Журнал «Российская юстиция», 2020, № 12, с. 55-58
8. Махвадалиев.А. Ozbek tilining izohli lugati /Ziyouz. uz.

AVTOMOBIL DVIKATELLARINING YONILG'I TAMINLASH TIZIMI

Xashimov Jamshid Abdukaxarovich

Forish tuman kasb-hunar maktabi

ishlab chiqarish ta'limi ustasi

Annotatsiya: ushbu maqolada avtomobil dvigatellarining yonilg'i ta'minlash tizmi karbyuratorlar ishi misolidagi fikrlar bilan berilgan.

Kalit so'zlar: yonilg'i, dvigatellar, ichki yonuv, gazlar, karbyurator.

Annotation: in this article, the fuel supply range of car divegatels is given by the opinions on the example of the work of carburetors.

Keywords: fuel, divegatels, internal combustion, gases, carburetor.

KIRISH

Yonilg'i bilan ta'minlash bilan tizimi ma'lum miqdordagi yonilg'ini o'zida saqlash, yonilg'i bilan xavoni tozalash, ularda kerakli tarkibda yonuvchi aralashma tayyorlash, aralashmani tsilindirga kiritish va ishlatilgan gazlarni tashqariga chiqarib yuborish uchun xizmat qiladi.

Dvigatelning ish maromi (rejimi)ga muvoffiq yonuvchi aralashmaga qo'yilgan talablar. Ichki yonuv dvigateli ish sharoitiga qarab 5 xil maromda ishlaydi: Sovuq dvigatelni yurgizish, dvigatelni salt yurgizish, o'rta yuklanish, eng yuqori yuklanish va tezlanish maromlari. Sovuq dvigatelning yurgizish uchun quyuq aralashma zarur, chunki bu holatda tirsakli valning aylanishlar soni kichik bo'lganligi sababli havo oqimining tezligi kichik bo'ladi, aralashmaning alanganishi uchun aralashmadagag'i yonilg'i bug'lari yetarli bo'ladi. Dvigatel yuklanishsiz va tirsakli val sekin aylanib, salt ishlaganda, tsilindrlarga kirishayotgan aralashmaning miqdori juda kam, sifati past bo'ladi. Shuning uchun bu maromga quyuqlashgan yonuvchi aralashma kerak bo'ladi. Dvigatel o'rtacha yuklanish bilan ishlaganda undan to'la quvvat talab etilmaydi, shu sababli suyuqlashgan aralashma ishlatiladi, bu esa aralashmaning to'la yonishini ta'minlaydi va yonilg'i sarfini tejaydi. Eng kata yuklanishlar uchun quyuqlashgan aralashma kerak, chunki bu maromda dvigateldan to'la quvvat talab etiladi. Tezlanish maromida tirsakli valning aylanishlar soni tezda ortishi kerak, buning uchun aralashmani qisqa muddatda quyuqlantiriladi, aks holda dvigatel o'chib qoladi. Bu ishlarning hammasini karbyurator bajaradi.

ASOSIY QISM

Yonilg'i aralashmasining tarkibi va uning xususiyatlari. Benzin dvigatel tsilindrlarda yonish jarayoni vaqtida to'la yonishi uchun uni havo bilan yaxshi va bir tekis aralashtirish lozim. Bu jarayon tirsakli 2500-4000 ayl/min aylanishida sodir bo'ladi va har bir takt taxminan 0.01s davom etadi. Bir kilogramm yonilg'ining to'la yonishi uchun zarur bo'lgan havoning nazariy miqdori 15kg. Dvigatelning ish

maromiga qarab yonilg'ining to'la yonishi uchun zarur bo'lgan havoning haqiqiy miqdori nazariy miqdordan ko'p yoki kam bo'lishi mumkin. 1kg yonilg'i yonishi uchun tsilindrga kiritilgan havoning haqiqiy miqdori L_h ning nazariy miqdori L_n ga nisbatan havoning ortiqchalik koeffitsenti deb ataladi. $L_x L_H \alpha = /$ Havoning ortiqchalik koeffitsenti karbyuratorli dvigatellarning ish maromiga qarab 0.85-1.15 bo'ladi. Agar $\alpha=1$ bo'lsa suyuq aralashma deyiladi. Dvigatel eng katta quvvtda ishlashi uchun havoning ortiqchalik koeffitsenti α 0,85-0,90 bo'lishi kerak. Aralashma hosil qilish uchun yonilg'i va havoning miqdori 1:13 yoki $\alpha=0,865$ bo'lsa, quyuk aralashma hosil bo'ladi, bu aralashmada dvigatel ishlasa, yonilg'i sarfi va quvvat ortadi, yonilg'i va havoning miqdori 1:13 dan kam bo'lsa yoki α 0,80 yoki α .

Yonilg'i aralashmasi xaddan tashqari kambag'allashsa karbyuratoridan «otishma» lar paydo bo'ladi, dvigatel qiziydi va quvati kamayadi. SHuni esdan chiqarmaslik kerakki, yondirishni ilgarilanish burchagi o'ta oldin va o'ta kech bo'lganda dvigatelni ishida shunday belgilar harakterlanadi. SHuning uchun taminlash tizimidagi nosozlikni qidirishdan oldin yondirishni o'rnatish momentini tekshirish va to'g'rilash lozim. Kambag'al aralashmada yonilg'i sekin yonadi va bu vaqtda tsilindrda ishlatilgan gazlar chiqarib yuborilgandan so'ng kirish takti boshlanadi, lekin yonish kamerasida ishchi aralashmani yonishi davom etadi, shu tufayli karbyuratorida «otishmalar» paydo bo'ladi. SHuning uchun tsilindrga kirayotgan yonilg'i aralashma yonadi va yonish kirish quvur o'tkazgichi bo'ylab karbyuratorga tarqaladi. Kirish klapani zich yo'ilmaganda ham karbyuratorida «otishma» paydo bo'ladi. Nosozlikni bartaraf qilish uchun uning kelib chiqishi sabablarini aniqlash lozim.

Kambag'al aralashma sekin yonishidan kelib chiqib gaz bosimi pasayishi dvigatel quvvatini pasayishiga olib keladi. Kambag'al aralashma nafaqat yonish kamerasida, balki tsilindrni butun hajmi bo'yicha ham sekin yonadi, bunda devorlarni qizish maydoni ko'payadi va sovutish suyuqligi harorati koptarilishi sababli dvigatel qizib ketadi. Kambag'al aralashma hosil bo'lish sabablari qo'yidagilar bo'lishi mumkin: karbyuratorga yetarli yonilg'i uzatilmaligi; asosiy dozalovchi tizimni yonilg'i jiklyorlarini ifloslanishi, agar dvigatel tirsakli valini kichik aylanishlarigao'tganida to'xtab qolsa; karbyuratorni kirish quvurlari yoki kirish quvurlarini tsilindrlar kallagi bilan tutashgan joylaridan havo tortsa; po'kak yoki ninasimonklapinni yuqori holatida qotib qolishi; po'kakli kamerada yonilg'i sathi pasaygan. Sanab o'tilgan nosozliklar qo'yidagi tartibda aniqlanadi va bartarafqilinadi: yonilg'i uzatilishini yuqorida koprsatilgan usul bilan tekshiriladi; yonilg'i me'yorida uzatilayotgan bo'lsa, birikmalardan havo tortilayotgan yoki tortilmayotganligi tekshiriladi; buning uchun ishlayotganda dvigatelda havo zaslonkasi berkitiladi va yondirish uchiriladi, bundan keyin karbyurator va kirish quvurlari birikkan joylari ko'zdan kechiriladi. Yonilg'ini ho'l dog'lari bu joylar zichlanmaganligi haqida dalolat beradi. Nosozliklarni bartaraf qilish uchun

birikmalarni gayka va boltlari tortiladi. Agar birikmalardan havo tortishi kuzatilmasa, unda po`kakli kameradagi yonilg`i sathi tekshiriladi va lozim bo`lganda u sozlanadi. Yonilg`i sathi GAZ-53A avtomobillar maxsus oynali darcha orqali, ZIL-130 avtomobillarida yonilg`i sathini tekshiruvchi bolt orqali, VAZ avtomobillarida karbyurator qo`qog`ini yechib olib tekshiriladi. Ifloslangan jiklyorlar konus o`titgichli shina nasosi yoki compressor yordamida tozalanadi.

XULOSA

Qizigan dvigatelni yonishini qiyinlashishi. Karbyuratori havo zaslonkasini to`la ochilmasligi, po`kakli kamerada yonilg`i sathini ko`payib ketishi (yonilg`ini oqib tushishi) hamda salt yurish tizimi jiklyorini sozlanishini buzilishi va ifloslanishi sababli qizigan dvigatelni yondirish qiyinlashadi. Nosozlikni bartaraf qilish uchun avval drossel zaslonkasini boshqarish pedalini oxirigacha bosib dvigatelni yondirish lozim. Agar bu yordam bermasa, havo zaslonkasi uzatmasi trosini tekshirish va lozim bo`lsa uni sozlash kerak, po`kakli kameradagi yonilg`i sathini tekshirish va sozlash lozim, salt yurish tizimni sozlash lozim, salt yurish tizimi jiklyorlarini ochib olib, uni tozalash va `udash lozim. Dvigatelni sovuq holatda ishga tushirish qiyinlashadi. Karbyuratorga yonilg`i kelmaganligi, karbyuratori ishga tushirish qurilmasini havoda yondirish tizimini nosozligi sababli dvigatelni sovuq holatida ishga tushishi qiyinlashadi. Karbyuratorga yonilg`i kelishini tekshirish yuqorida koprib o`tilgan. Agar karbyuratorga yonilg`i kelayotgan va yondirish tizimi soz bo`lganda dvigatel sovuq holatida ishga tushirish qiyinlashsa, uni sababi birlamchi kamera havo va drossel zaslonkalari holatini hamda ishga tushirish qurilmasini pnevmokorrektorini sozlanganligi buzilganligidir. Bunday holatlarda havo zaslonkasi tros uzatmasini to`g`rilash bilan sozlash va pnevmokorrektorni ishlashini tekshirish lozim. Dvigatel turg`un ishlaya`ti yoki tirsakli valni kichik aylanishlarida salt yurishda to`xtab (o`chib) qolya`ti. Bu nosozlik ta`minlash tizimiga bog`liq bo`lmagan juda ko`p sabablarga bog`liq bo`lishi mumkin. Misol, yondirishni noto`g`ri o`rnatilganligi, yondirish shamlari elektrodlarida qurum hosil bo`lishi yoki ular elektrodleri orasidagi tirqishni buzilishi, klapanli mexanizmlardagi tirqishlarni buzilishi, kompressiyani pasayishi, tsilindrlar kallagi va kirish quvuri, karbyurator birikmalari orasidan havo so`rishi. Ta`minlash tizimini tekshirishdan oldin yondirish tizimi va gaz taqsimlash mexanizmini sozligiga ishonch hosil qilish lozim. SHundan so`ng drossel zaslonkasi va uni uzatmasini qadalib qolishini (ushlanib qolishini), so`ng karbyuratori salt yurish tizimini sozlash lozim.

Adabiyotlar:

1. Mamatov.X. Avtomobillar. 1-qism. -T.: O`qituvchi, 1995.-272 b.
2. Mamatov.X. Avtomobillar. 2-qism. - T.: O`qituvchi, 1998.-333 b.
3. Fayzullaev.E. Transport vositalarining tuzilish va nazariyasi (lotin yozuvida). Toshkent. Yangi asr avlodi, 2006.-375 b

4. Fayzullaev E.Z va boshqalar. Transport vositalarining tuzilishi va nazariyasi. Toshkent, "Zarkalam," 2005.-432.
5. Vaxlamov V.K, Podvijnoy sostav avtomobil'nogo transporta.- M: Akademiya, 2003. -285 b.
6. Vaxlamov V.K, Shatrov M.G, Yurchevskiy A.A. Avtomobili: Teoriya i konstruktsi avtomobilya i dvigatel'ya. - M: Akademiya, 2003. -320 b.
7. Ivanov.A.M, A.N,Gaevskiy V.V.Osnovoi konstruktsii avtomobilyam. Knijnoe izdatel stvo Za rulem. 2005-336 s.
8. Qodirov.S.M Tiko avtomobilining tuzilishi, nosozliklarini aniqlash va ta`mirlash. - T.: O`qituvchi, 2001.
9. Qodirxonov.M.O. Avtomobillarning ish jarayonlari va hisobi.- T.:O`qituvchi, 2003.-273 b

YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIK VA JINOYATCHILIKNI OLDINI OLISH



Egamberdiyeva Muxayyo Rashid qizi
Forish tuman kasb-hunar maktabi
boshlang'ich tashkilot yoshlar yetakchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olish masalalari va ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlar xususidagi fikrlar ifodalangan.

Kalit so'zlar: huquqbuzarlik, jinoyatchilik, profilaktika, yoshlar, kurash, javobgarlik.

Аннотация: В данной статье представлены мнения по вопросам профилактики правонарушений и преступности среди молодежи, а также о проводимой в этом направлении работе.

Ключевые слова: правонарушение, преступность, профилактика, молодежь, борьба, ответственность.

Aannotation: this article expresses thoughts on the issues of prevention of offenses and crime among young people and the work carried out in this direction.

Keywords: offense, crime, prevention, youth, struggle, responsibility.

KIRISH

Yoshlik insonning porloq kelajagi uchun urug' qadaydigan bahor pallasidir. Bu ne'matdan unumli foydalanib, o'zining salohiyatini oshirib borgan, jamiyatda munosib o'rin egallashga kirishgan insonning ertasi nurafshon. Ammo, ayrimlar "Yoshlik-beboshlik" deya nojo'ya harakatlarga qo'l urib jinoyat ko'chasiga kirib qolganini bilmay qolyapti. Bundaylar o'z boshiga o'zi kulfat sotib oladi, desak xato bo'lmaydi. Agar ular ham o'z muvaffaqiyatlari bilan yurt ravnaqiga hissa qo'shayotgan yoshlardan ibrat olganida, ularning ota-onalari farzandlariga befarq bo'lmaganlarida edi bugun yoshlar jinoyatchiligi ancha kamayardi. Adashgan yoshlar mayda bezorilik, o'g'irlikka qo'l urib bebaho, betakror umrning oltinga teng davrini panjara ortida o'tkazmagan bo'lardilar. Yoshlar ertamiz ko'zgusi. Ularning kelajagi butun bir millatning shirin tashvishidir. Hozirda barcha jabhada yoshlar masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olish uchun nafaqat ota-ona, mahalla, balki bir qator tashkilotlar va idoralar ham mas'ul etib belgilangan.

Bugun jinoyatchilik va huquqbuzarlik holatlarining yoshlar o'rtasida kuzatilayotgani achchiq haqiqat. Yoshlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar umumiy jinoyatlarga nisbatan 25 foizga yetgan. Xalqimizda, "Kasalni davolagandan ko'ra, oldini olgan ma'qul", degan naqlga amal qilgan holda jinoyat bilan kurashishda dastlab yoshlarni jinoyat qilishga undaydigan sabablar, holatlarni aniqlab, ularni bartaraf etish choralarini ko'rmoqda. Yoshlar orasidagi jinoyatlarning ildiz ham huddi shu jihatlardan qidirilmoqda Ma'lumki, yoshlar asosan bekorchiligi, e'tiborga muhtojligi, huquqiy savodxonligining pastligi tufayli jinoyat sodir etadi. Muammoga yechim topish maqsadida Yoshlar ittifoqi huquqni muhofaza qiluvchi organlar, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlikda yoshlarning siyosiy faolligi, huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni kuchaytirib boryapti. Kelajagimiz yoshlarning qo'lida ekanligini unutmagan holda ular tomonidan jinoyat yoki huquqbuzarlik emas, ezgu va bunyodkorlik tashabbuslari chiqishini, shunday ishlar amalga oshirilishini ta'minlash uchun barchamiz birdek harakatda bo'lmog'imizni zamonning o'zi talab qilmoqda.

ASOSIY QISM

Huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikni jilovlash masalasi ham davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Yoshlar o'rtasida jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklarning oldini olish yuzasidan huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan birga mahalliy hokimlik va boshqa mutasaddi idoralar zimmasiga muhim vazifalar yuklangan. Ular buni bajarish bo'yicha turli chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Shunga qaramay jinoyatlar uchrayotgani, jinoyat qilgan shaxslarning har uchinchisini yoshlar tashkil qilayotgani afsuslanarli.

Bunday jarayonlar oldini olishda har bir ta'lim dargohlarida doimiy ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xuddi shuningdek, Forish tuman kasb-hunar maktabi

boshlang'ich tashkilot yoshlar yetakchisi va profilaktika inspektorlari bilan hamkorlikda "Yoshlar orasida huquqbuzarliklarni oldini olish va jinoyatchilikni bartaraf etish" mavzusida o'quv semenari tashkil etildi. Ushbu seminarda huquqbuzarlik uning natijalari, oqibatlarini bo'yicha yanada tushuntirish ishlari olib borildi. Quyidagi tushuncha va fikr mulohazalar tinglandi.

Huquqbuzarlik - huquq va muomala layoqatiga ega sub'yekt tomonidan sodir etiladigan, huquq normalari talablariga zid keluvchi hamda shaxsga, mulkka, davlatga va butun jamiyatga zarar keltiruvchi ijtimoiy xavfli qilmish. O'z xususiyatiga ko'ra, Huquqbuzarlik jinoyat, nojo'ya harakat, intizomni buzish shaklida bo'ladi. Ko'p hollarda Huquqbuzarlik qonunbuzarlik so'zi bilan bir xilda ishlatiladi.

Jinoyatchilik — Jinoyat qonunida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmish. Muayyan qilmishni jinoyat deb hisoblash masalasi har bir davlatda o'zining ijtimoiy tuzumi, aholining turmush tarzi, milliy xususiyatlari, urf-odatlarini, an'analari bilan muvofiq xalqaro huquq me'yorlari e'tiborga olingan holda hal etiladi.

muloqot olib borib, turli axborot xurujlaridan asrashga hamda yurtga muhabbat, uzoq tarixga ega azaliy qadriyatlar, ajdodlar merosiga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Muloqot tarzida o'tgan davra suhbatida mutaxassislar tomonidan yoshlar o'zlarining qiziqtirgan barcha savollariga batafsil javob oldilar.

Davlatimiz rahbarining doimiy diqqat markazida turgan huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida belgilangan vazifalar ijrosi, bu borada mavjud muammolar va ularni hal etish masalalari Prezidentimiz raisligida 15 noyabr kuni o'tkazilgan videoselektorda ham atroflicha muhokama qilinganligi ta'kidlandi. E'tirof etish kerakki, huquqbuzarliklarning bir qismi tayin bir ish joyiga ega bo'lmagan shaxslar tomonidan sodir etilmoqda. Bunday shaxslar tomonidan huquqbuzarlik sodir etilishini oldini olishda aholi bandligini ta'minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu haqda gap ketganda, mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yuritish, tadbirkorlar oldida turgan muammolarni bartaraf qilish, ularga keng imtiyoz va imkoniyatlar berish borasida ulkan ishlar amalga oshirilayotganligini misol qilishimiz mumkin. Xususan, valyuta siyosatining liberallashtirilishi, mahsulotlarni eksport qilish shartlari yengillashtirilganligi, tadbirkorlik sub'ektlariga davlat xizmatlari ko'rsatish tizimi takomillashtirilganligi ushbu sohani yanada rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi tabiiy.

Jinoyatchilikni oldini olishda mahalla instituti imkoniyatlaridan samarali foydalanish zarur hisoblanadi. Shu bois, Respublikamizda mahalla fuqarolar yig'inining "Mahalla posboni" jamoatchilik tuzilmasi faoliyati yo'lga qo'yilgan. Qolaversa, Prezidentimiz ta'kidlagandek, sodir etilgan jinoyatlarni mahallada keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilishni profilaktik ahamiyatga ega. Negaki, jinoyatchilikka qarshi kurashish faqat huquq tartibot organlarining emas, balki keng jamoatchilikning vazifasi bo'lmog'i zarur.

Hammamizning oldimizda turgan yana bir muhim masala bu yoshlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish. Videoselektorda qayd etilganidek, yoshlar o'rtasida jinoyat sodir etish joriy yilning 10 oyi mobaynida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 14 foizga, voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyat sodir etish esa 17 foizga kamaygan. Biroq, yoshlar o'rtasida jinoyatchilikning saqlanib turganligi barchamizni befarq qoldirmasligi lozim. Chunki, yoshlar bizning kelajagimiz. Shundan kelib chiqqan holda, O'zbekiston yoshlar o'rtasida turli xil illatlarni oldini olish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash maqsadida salmoqli ishlarni amalga oshirilmoqda. Xususan, mustaqillik qo'lga kiritilganidan 3 oy o'tmasdan, ya'ni 1991 yil 20 noyabrda "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. 2016 yilga kelib "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Bundan tashqari, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi, "Voyaga yetmaganlar o'rtasida

nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi, “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilindi, qator xalqaro hujjatlar ratifikatsiya qilindi. Parlamentning yoshlar bilan ishlash borasidagi faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida, yaqinda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Yoshlar masalalari bo‘yicha komissiyasi tuzildi va o‘zining faoliyatini boshladi.

XULOSA

Farzand niholga o‘xshaydi. Uni yoshligidan qanday tarbiyalasak, shunday voyaga yetadi. Bunda, albatta, oila, mahalla, ta’lim tashkiloti va jamiyatdagi muhit muhim ahamiyatga ega. Zero, o‘zi, oilasi, xalqi, ma’naviy ildizlari haqida yetarli tushunchaga ega bo‘lgan bola jinoyat ko‘chasiga qadam bosmaydi. Hozirgi kunda yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini namoyon qilish, ularning fuqarolik javobgarligini va olib borilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini oshirish borasida bir qator amaliy ishlar qilinmoqda. Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish, ekstremizm, terrorizm va uyushgan jinoyatchilikning boshqa shakllariga qarshi kurashish bo‘yicha tashkiliy-amaliy choralarni kuchaytirish darkor. Korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va samaradorligini oshirish, aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish, bu borada davlat tuzilmalarining fuqarolik jamiyati institutlari, ta’lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro samarali hamkorligini tashkil etish bilan bog‘liq aniq vazifalar belgilangan. Ma’rifatparvar alloma Abdulla Avloniy yoshlar tarbiyasini “hayot - mamot masalasi”, deb ta’riflagan. Zero, tarbiyasi mo‘rt yoshlardan jamiyat, mahalla yoki oila uchun hech qanday naf bo‘lmaydi. Yoshlarning jinoyatga qo‘l urishi tarbiyada yo‘l qo‘yilgan xato yoki befarqlikning achchiq in’ikosidir. Kelajagimiz yoshlarning qo‘lida ekanligini unutmagan holda ular tomonidan jinoyat yoki huquqbuzarlik emas, ezgu va bunyodkorlik tashabbuslari chiqishini, shunday ishlar amalga oshirilishini ta’minlash uchun barchamiz birdek harakatda bo‘lmog‘imizni shart.

MANBALAR

1. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi PQ-2833-sonli qarori.
2. yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan vazifalar ijrosi ustidan ta’sirchan parlament nazoratini amalga oshirish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining kengashining qarori, 18.05.2020 yildagi 274-IV-son.
3. <https://uzlidep.uz/uz>.
4. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/yoshlar-huquqbuzarliklari-profilaktikasi-va-jinoyatchilikka-qarshi-kurashishning-zamonaviy-usul-va-shakllari>.
5. <https://uza.uz/oz/posts/yoshlar-ort>.

TEXNOLOGIK JARAYONLARNI PETRI TARMOQLARI YORDAMIDA MODELLASHTIRISH

Norboyev Abduahad Tohir o'g'li

*Toshkent kimyo-texnologiya instituti Yangiyer filiali Avtomatika
va texnologik jarayonlar kafedrasi stajyor o'qituvchisi*

Xoliyev Qudrat Jumayevich

*Toshkent kimyo-texnologiya instituti Yangiyer filiali Avtomatika
va texnologik jarayonlar kafedrasi stajyor o'qituvchisi*

Baxrullayeva Moxinur Olimjon qizi

Toshkent kimyo-texnologiya instituti 103-21 AB guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada texnologik jarayonlarni petri tarmoqlari yordamida modellashtirishning usullari hamda petri tarmoqlari haqida ma'lumot va petri tarog'I yordamida masala ishlandi.


Kalit so'zlar. Matematik model, fizik model, petri tarmog'i, graf, tenglama, funksiya, pozitsiya, dasturlash tili, algoritm, blok sxema.

Petri tarmog'i va uning xossalari.

Petri tarmog'lari dinamik diskret tizimlarni modellashtirish uchun matematik apparatdir. Bu birinchi bo'lib Karl Petri tomonidan 1962 yilda tasvirlangan.


Petri tarmog'i ikki tomonlama yo'naltirilgan graf bo'lib, ikki turdagi cho'qqilardan - yo'ylar bilan bog'langan pozitsiyalar va o'tishlardan iborat. Bir xil turdagi cho'qqilarni tog'ridan-tog'ri ulash mumkin emas. Pozitsiyalarda tarmoq bo'ylab harakatlanishi mumkin bolgan belgilar (markerlar) bo'lishi mumkin. Hodisa - bu o'tishning ishga tushirilishi, bu o'tishning kirish pozitsiyalaridan belgilar chiqish pozitsiyalariga o'tkaziladi. Hodisalar bir zumda yoki turli vaqtlarda, muayyan sharoitlarda sodir bo'ladi.

UML standart diagrammalari, BPMN va EPC singari, Petri tarmoqlari tanlash, iteratsiya va bir vaqtning o'zida bajarish bilan bog'liq jarayonlarni grafik tarzda tasvirlash imkoniyatini beradi. Ammo bu standartlardan farqli o'laroq, Petri tarmoqlari aniq matematik formulaga va ularning ortida rivojlangan matematik nazariyaga ega.



1-rasm. Petri tarmog'ini ishlashiga misol Petri Petri tarmog'i 4 ta elementdan tashkil topgan:

- P pozitsiyalar to'plami;
- T o'tishlar to'plami;
- I kirish funksiyasi;
- O chiqish funksiyasi.



2-rasm. Petri tarmog'ini ishlashiga misol. Oq doiralar bilan pozitsiyalar, chiziqlar bilan o'tishlar va qora doiralar bilan belgilar tasvirlangan.

Kirish va chiqish funksiyalari o'tishlar va pozitsiyalar bilan bog'liq. I kirish funksiyasi t_j o'tishni $I(t_j)$ pozitsiyalar to'plamiga o'tishning kirish pozitsiyalari deb ataladi. O chiqish funksiyasi p_i o'tishni o'tishning chiqish pozitsiyalari deb ataladigan $O(p_i)$ pozitsiyalari to'plamini ifodalaydi. Petri tarmog'ining tuzilishi uning pozitsiyalari, o'tishlari, kirish va chiqish funksiyalari bilan belgilanadi. Petri tarmog'ini mantiqiy tizimlarni modellashtirishda qo'llash.

Endi Petri tarmog'i yordamida hisoblash jarayoni modelini qurishni amalda ko'rib chiqamiz. Kvadrat tenglamani yechish algoritmini misol qilib olaylik:

$$ax^2 + bx + c = 0$$

Ma'lumki, birinchi bo'lib diskriminant hisoblanadi:

$$D = b^2 - 4ac$$

undan keyin agar $D > 0$, tenglamaning ildizlari hisoblanadi:

$$x_{1,2} = \frac{-b \pm \sqrt{D}}{2a}$$

Mazkur masalani yechimni Paskal dasturi asosida quyidagicha yozish mumkin:

```
begin readln(a, b, s);
d:=b*b-4*a*s; if d >= 0 then begin
x 1:=(-b+sqrt(d))/(2* a); x2:=(-b-sqrt(d))/(2* a); writeln('x1=', x1, ' x2=', x2);
end;
else
writeln('Haqiqiy ildizlariga ega emas.');
```


Oddiylik uchun dastur matnida hech qanday qo'shimcha modullarni yuklash, o'zgaruvchilar uchun xotira ajratish va hokazolar. bilan bog'liq satrlar mavjud emas. Eslatib o'tamiz, Paskalda readln operatori foydalanuvchi kiritish uchun, writeln esa ekranga chiqarish uchun foydalaniladi. Ushbu dasturning blok sxemasini tuzamiz (3-rasm), unda keyingi tahlilning soddalik uchun 1-jadvalda keltirilgan belgilarni qabul qilamiz.

1-jadval.


| Belgilanishi | Harakat |
|--------------|--|
| a | readln(a, b, s); |
| b | d:=b*b 4*a*s; |
| c | if d >= 0 then begin |
| d | x 1:=(-b+sqrt(d))/(2* a); x2:=(-b-sqrt(d))/(2* a); |
| e | writeln('x1=', x1, ' x2=', x2); |
| f | writeln('Haqiqiy ildizlariga ega emas.'); |

Yuqorida keltirilgan algoritmgga mos keladigan Petri tarmog'ini quramiz. Birinchi navbatda masalani yechimining blok sxemasini tugunlarini Petri tarmog'iga almashtirish keak bo'ladi.


Ushbu almashtirish 4, 5-rasmlarda ko'rsatilgan. 6-rasmdagi "1" va "0" belgilari yechim tugunidagi shartni tekshirish natijasiga mos keladi: "1" - "haqiqat" va "0" - "yolg'on".



3-rasm. Kvadrat tenglamani yechish dasturining blok sxemasi.



4-rasm. Blok sxemasidagi hisoblash tuguni va uning Petri tarmog'idagi tasviri.




